



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 20-iyun, № 125 (9020)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



KENG KO'LAMLI ISLOHOTLAR AHOLI DAROMADINI OSHIRIB, HUDUDLAR QIYOFASINI O'ZGARTIRMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi bilan yaqindan tanishish maqsadida 19-iyun kuni Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurdi.



Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar soha va tarmoqlarda o'z natijalarini bermogda. Butun respublikada texnologik "sakrash" kuzatilmogda. Xususan, joriy yilning besh oyida sanoat 6,4 foiz o'sgan, bu sohada eksport 6 milliard dollardan oshgan.

Bunda Qashqadaryo sanoatining hisssasi katta. Qarshi shahridagi "Alp texno servis" shunday eksportchi korxonalaridan biri.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifining dastlabki manzili "Alp texno servis" korxonasi bo'ldi.

Qiyamti 10 million dollar bo'lgan mazkur loyiha elektr texnikasi yo'nalishida global yetkazib berish zanjirida o'rin topgan. Korxonada "TSL", "HOFMANN" brendlari uchun buyurtmalar tayyorlab bermogda. Shuningdek, mahalliy SMART brendiga asos solingan. Shu nomlar ostida yiliga 500 ming donagacha televizor va elektron platalar ishlab chiqarilmogda.

Mahsulotlar yuqori texnologik, sifati va dizayni bozor talabiga mos. Shu bois 70 foiz tovarlar eksportga yo'naltirilmogda. O'tgan yili 2 million dollardan ziyod eksport qilingan. Bu yilgi reja 10 million dollar.

Davlatimiz rahbari bu tarmoqni yanada rivojlantirish zarurligini ta'kidlagi.

— Bu sohada tajriba o'rtiridik, tashqi bozorga yo'l topdik. Endi bu korxonani kengaytirish kerak. Odamzod ber ekan, bunday mahsulotlarga talab bo'ladi. Faqat sifat va nomenklatura bo'yicha o'sish, raqobatbardosh bo'lish zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yana bir muhim vazifa — mahalliyashtirish. Hozir korxonada bu ko'rsatkich 50 foizdan oshgan. Kelgusida 20 million dollarlik yana 4 ta loyihani amalga oshirib, changyutgich, elektr choynak, havo sovitchik, ventilyator ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bularning natijasida yiliga 30 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi.

Korxonada 200 kishi ish bilan ta'minlangan. Qarshi davlat texnika universiteti bilan dual ta'lim yo'lga

qo'yilgan. Davlatimiz rahbari Qarshi shahridan Shahrisabzga ketayotib, poyezdda qashqadaryolik faollar bilan samimiy muloqotda bo'ldi.

Suhbatda shahar qishloqlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti, bugungi tinchlik qadri haqida so'z bordi.

"Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu g'oya davlatimizning faoliyat dasturiga aylangan. Shu asosida aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, daromadi va farovonligini oshirish, mahallalarni obod qilish ijtimoiy hayotimizda yetakchi o'ringa chiqmogda.

Hududlar imkoniyatini to'liq ishga solish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar natijasida yurtimizning o'zida munosib mehnat sharoitlari yaratilmogda. Yoshlar va xotin-qizlar daromadli kasblarga o'qitilyapti.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar samarasida sanoat jadal rivojlanmogda, ilg'or texnologiyali korxonalar qo'shilgan qiymat yaratilmogda. Qishloq xo'jaligi, turizm, transport, energetika sohalarida ulkan loyihalar ishga tushirilmogda.

Prezidentimiz iqtisodiyot rivoji, aholi kayfiyatida yo'llarning ahamiyati yuqori ekanini ta'kidlab, bu borada mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Oxirgi 2 yilda yurtimizda 40 ming kilometr yo'l va 540 ta ko'priklar ta'mirlangan. Bu yil Qashqadaryoda jami 100 kilometr magistral yo'llar ta'mirlanishi rejalashtirilgan. Bu loyihalarni tezlashtirish, yo'l bo'ylarini obodonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Nuroniyalar bo'yicha xalqimiz o'z hayotida sezayotgan, islohotlarga yuqori baho berayotganini aytishdi. Xotin-qizlar vakili barcha sohalarida ayollarga keng imkoniyatlar berilgan, natijada ular o'z oilasi va mehnat jamoalarida qadr topib, hayotidan rozi bo'lib yashayotganini so'zlab berdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Shahrisabz shahridagi ko'p tarmoqli kardiologiya markazi faoliyati bilan tanishdi.

Ijtimoiy davlat sanalmish O'zbekistonda aholi salomatligini mustahkamlash

eng dolzarb yo'nalishlardan biri. Shu maqsadda davlat shifoxonalari isloh qilinayotib, sohaga investitsiyalar jalb etilib, xususiy sektor ham rivojlantirilmogda. Jumladan, bugungi kunda Qashqadaryoda 700 dan ziyod xususiy klinikalar ochilgan, ularda 72 ta xizmat turi yo'lga qo'yilgan.

Rossiyalik tadbirkor bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Oq saroy" klinikasi yaqinda ishga tushdi. Bu yerda 4 ta jarrohlik va 6 ta reanimatsiya xonasi, 100 dan ortiq shifo o'rinlari mavjud. Bir vaqtning o'zida 4 ta va kuniga 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiologiya amaliyotlarini o'tkazish imkoniyati yaratilgan. Buning uchun Rossiya, Turkiya va Kuvaytdan malakali shifokorlar ishga jalb etilgan. Stentlash, aorta koronar shuntlash, tug'ma nuqsonlarni bartaraf etish, endoprotezlash kabi davolar samarasi yuqori.

Markaz yuqori aniqlikda tashxis xizmati ham ko'rsatadi. Masalan, zamonaviy ekokardiografiya uskunasi sun'iy intellekt yordamida ishlaydi. Bunaqasi hozircha O'zbekistonda yagona.

Davlatimiz rahbari bunday innovatsion klinikalar tibbiyotda sifat va dunyoqarashni o'zgartirishi, boshqalarni ham transformatsiyaga undashini ta'kidlagi.

— Bu yerdagi tizimni andoza qilib olib, 14 ta hududimizda shunday klinikalar tashkil etish zarur. Bunga qancha mablag' kerak bo'lsa, topamiz. Faqat zamirida xalqimiz uchun kafolatlangan sifatlil davo bo'lishi lozim. Muqobilik, raqobat bo'lmasa, sifatga intilish bo'lmaydi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mutasaddilarga bu borada taklif tayyorlash, klinikalarni birlamchi bo'g'in va tibbiy sug'urta tizimi bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shifoxonada 130 ta ish o'ri yaratilgan. Malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shu yerning o'zida klinik ordinatura yo'lga qo'yilgan.

Prezidentimiz bunga alohida ahamiyat qaratib, talaba va shifokorlarning malakasini oshirish, xorijlik mutaxassislar bilan telemeditsinani kengaytirish muhimligini qayd etdi.

Aytilish joizki, noto'g'ri ovqatlanish oqibatida qashqadaryoliklar orasida yurak-

qon tomir xastalıkları ko'p uchraydi. Yangi klinika va uning qoshidagi markaz ushbu kasalliklarni erta aniqlab tashxis qo'yish va davolashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur markaz tomonidan mobil diagnostika mashinalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, chekka hududlardagi aholiga UTT, MSKT, EKG kabi tibbiy xizmatlarni ko'rsatadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yakkabog' tumanida barpo etilgan "Yangi O'zbekiston" massivini borib ko'rdi.

Aholi farovonligi va turmush madaniyatini oshirishga qaratilgan mazkur massiv ilg'or shaharsozlik yechimlari asosida qurilgan. Ko'p qavatli uy-joylar ko'rkamligi, tartibli va obodligi bilan tuman qiyofasini o'zgartirib yubordi. 18 gektar maydonni egallagan massivda 54 ta besh qavatli uylar qurilib, 1 ming 400 ta xonadon aholiga taqdim etiladi.

Inshootlar nafaqat zamonaviy arxitekturasini, balki aholi uchun yaratilgan infratuzilmaning qulayligi bilan ham ajralib turadi. Har bir uy zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlari, atrofi esa bolalar maydonchalari va avtoturargohlar bilan ta'minlangan.

Shu bilan birga, hududda uch qavatli "Eko bozor" barpo etilgan. U orqali mahalliy dehqonlar o'z mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga yetkazish imkoniga ega. Bu esa ham sifat, ham narx jihatidan odamlarga ma'qul bo'lmoqda. Bozorda 640 ta ish o'ri yaratilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu ekobozorda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, sotuvchi va xaridorlar bilan muvofiq qildi. — Bozorlar to'kinlik, farovonlik va xalqning madaniyatini ko'rsatadi. Yakkabog'da shunday obod maskan bunyod etilgan quvonarli. Iqtisodning xarid qobiliyati, bozor madaniyati oshyapti. Shunga munosib bunday qulay savdo markazlarini ko'paytirish kerak, — dedi Prezident.

Alohida e'tiborga molik jihati, massivdagi infratuzilma inshootlariga quyosh panellari va geliokollektorlar o'rnatilgan. Bu esa energiya tejamlorligi va uzluksizligi, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Aholining dam olishi, bolalar va yoshlarning faol vaqt o'tkazishi uchun ham qulayliklar yaratilgan. Xususan, sayilgohlar, bolalar bog'chasi, sport maydonlari, sog'lomlashtirish maskanlari hamda servis nuqtalari yagona konsepsiya asosida barpo qilingan.

Mutasaddilarga shu konsepsiya asosida boshqa tuman markazlari va massivlarni ham rivojlantirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Shahrisabz tumani Hisor tog'i yonbag'ridagi sayyohlik salohiyati bilan tanishdi.

Turizm kam mablag' bilan ko'p ish o'ri yaratadigan, aholi daromadi va hududlar qiyofasini yaxshilaydigan soha. Qashqadaryoda ham bu borada imkoniyatlar ko'p.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrda qaratilgan Qashqadaryo viloyatining tog'll-rekreatsiya hududlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm majmualari barpo etilmogda. Jumladan, xorijiy davlatlarning malakali ekspertlari va yetakchi kompaniyalari ishtirokida Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalarida sayyohlar uchun qulayliklar yaratilmogda. Umumiy 240 gektar maydonda 400 million dollarlik 117 ta loyiha amalga oshirilayotir. Buning

natijasida esa 1 ming 700 ta doimiy ish o'ri ochiladi.

Bugun Mirakidagi o'zgarishlar mazkur qaror va turizm bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishlar natijasi.

Ilgari bu so'lim joylardan har kim o'z bilganicha foydalanar edi. Soy bo'ylari betartib, oromgohlarda infratuzilma yetishmasdi. Bugun bu manzil yaxlit turizm klasteriga — "Miraki" xalqaro turizm markaziga aylandi.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi obodlik va qulayliklarni ko'zdan kechirdi. Oqsuv daryosining ikki qirg'og'i bo'yab piyoda va velosipedda yurish uchun o'n kilometrlik "eko yo'lak" tashkil etilgan. Bolalar maydonchasi, ko'ngilochar bog', nuroniyalar maskani, oilaviy mehmon uylari hamda ko'chma savdo shoxobchalari mahalla ko'rkini oshirgan.

"Miraki and spa resort" dam olish hududi turizm markazining zamonaviy qismi. Bu yerda ikkita mehmonxona, savdo va ko'ngilochar majmuasi barpo qilingan. Shuningdek, bir vaqtning o'zida 600 nafar sayyohni qabul qiluvchi mehmonxonalar, 300 o'rinni oilaviy xostel ochilgan. Bu yiliga 300 mingdan ortiq mehmonlarga xizmat ko'rsatilishini anglatadi.

Davlatimiz rahbari yangi mehmonxona va savdo majmuasi faoliyati bilan tanishdi. Sayyohlik bo'yicha istiqbolli muhim loyihalar haqida ma'lumot berildi.

— Shahrisabzning ustun tarafi — yil davomida sayohatga kelish mumkin. Buning uchun yo'l, kommunikatsiya, mehmonxonalar quraymiz. Endi xizmat turlarini ko'paytirishni o'ylash kerak. Masalan, Mirakiga kelgan mehmon vaqtini qanday o'tkazadi, nimalar xarid qiladi? Shu talablardan kelib chiqib, xizmatlar taklif qilish, bu yerning tabiati va sharoitini chet ellarda keng targ'ib etish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yangi sayyohlik markaziga investorlarni jalb etish uchun muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari tortilgan. Mirakiga eltuvchi va mahalla ichidagi yo'llar mukammal ta'mirlangan. Elektr ta'minoti yaxshilangan. Sayyohlarni qiziqtirish uchun Hisorak suv omboriga tutash hududda ikki kilometrdan ortiq dor yo'l va dengiz sathidan 2 ming 700 metr balandlikda restoran ham barpo etilgan.

Bunday keng qulayliklar Qashqadaryoga keluvchi sayyohlar sonini oshirmogda. O'tgan yili viloyatga ikki yarim million nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. Shundan besh yuz ming nafarga yaqini aynan Shahrisabz tumaniga kelgan. Hududdagi bo'y o'zgarishlardan keyin keltirilgan raqam bir necha barobar o'sishi tabiiy.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Shahrisabz tumanidagi Hisorak suv ombori yaqinida barpo etilgan Hisorak kichik gidroelektrstansiyasini ko'zdan kechirdi.

Hisorak suv ombori 1987-yilda qurilgan bo'lib, 2004-yilda kapital rekonstruksiya qilingan. Hududda 2011-yilda ishga tushirilgan quvvati 45 MVt bo'lgan asosiy Hisorak GES ham mavjud bo'lib, yiliga 80 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu esa o'rtacha hisobda 33 ming xonadonning yillik elektr energiyasi ehtiyojini qoplaydi.

Mamlakatimizda ekologik toza, arzon va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish hamda mavjud quvvatlarni oshirishga alohida e'tibor qaratilmogda. "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati tomonidan kichik va mikro GESlar barpo etilib, foydalanishga topshirilmogda.

Shahrisabz tumanida energetik quvvati 3,5 MVtga teng, yiliga o'rtacha 17,5 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi Hisorak kichik GES shular jumlasidan. Uning qurilishi to'liq mahalliyashtirish doirasida amalga oshirildi. Loyihaning qiymati 1,5 million dollarni tashkil etadi. GES faoliyati natijasida yiliga o'rtacha 5 million metr kub tabiiy gaz tejaladi. Bu yerda ishlab chiqariladigan elektr energiya 7 ming 300 ta xonadonga yetadi.

Xonadonlariga daryo suvidan energiya olish bo'yicha kelgusi rejalarda haqida axborot berildi.

Eng muhim loyihalardan biri — kelgusi ikki yil ichida umumiy quvvati 12 MVt bo'lgan 416 ta kinetik turbinali mikro GES qurish rejasidir. Bu mikro GESlar ariq va kanallardagi suv oqimidan samarali energiya ishlab chiqarish imkonini beradi. Hozirda viloyatda umumiy quvvati 49 MVt bo'lgan 3 ta GES faoliyat yuritilmogda. Istiqbolli loyihalar tufayli bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshishi kutilmogda. Gidroenergetika orqali viloyatda aholi elektr energiyasi iste'molining 15 foizini qoplash maqsad qilingan.

Mamlakatimizda so'nggi sakkiz yil ichida elektr energiyasi ishlab chiqarish 38 foizga oshib, 81,5 milliard kVt/soatga yetdi. Joriy yilda respublika bo'yab umumiy quvvati 24,7 MVt bo'lgan 5 ta yangi kichik GES foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Italiya, Fransiyaning landshaftli bog'lari, qirdagi tokzorlari dunyoga mashhur. Ularni borib ko'rishga ishtiyoqmandlar ko'p. Endi shunday ko'rkam maskan Shahrisabzda ham bor.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifi chog'ida ushbu agroturizm majmuasini borib ko'rdi.

Ilgari bu joylar quruq qir-adir bo'lgan. Tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilgan natijasida hudud yashillikka burkandi. Majmuasi 520 gektardan iborat bo'lib, adirlik qismida "terrasa" usulida uzum, gilos va olma ekilgan hamda o'rmon barpo etilgan. Fransiyaning eng sara navlar olib kelingan.

— Cho'l-adirilarni o'zlashtirishimizga shubha qilganlar shu bog'ni kelib ko'rsin, — dedi Prezident.

7,5 ming tonna mahsulot yetishtirish imkoniyatiga ega majmuaning eksport quvvati 5 million dollarga teng. 100 ta doimiy va mingdan ortiq mavsumiy ish o'ri yaratilgan. Ko'chatlar rivojini fransiyalik mutaxassis kuzatib boradi, yoshlarga dehqonchilik sirlari va bozor talablarini o'rgatadi.

Hududda, shuningdek, 120 o'rinni restoran va 100 o'rinni mehmonxona qurilgan. Agroligistika va o'quv markazi, qayta ishlab, saqlash quvvatlari qurilmogda.

Mutasaddilar bunday bog'larni kengaytirish, boshqa tog'li tumanlarda ham tashkil etish rejalari haqida aytdi. Davlatimiz rahbari sug'orishni tashkil etib, bog'larni aholiga bo'lib berish, odamlarga daromad manbai yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davom etmogda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdullaziz RUSTAMOV,
O'lmas BAROTOV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Uchrashuv

ODAM SAVDOSI VA MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASHDAGI YUTUQLAR E'TIROFI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Afg'oniston, Markaziy Osiyo, Pokiston va Erondagi mintaqaviy vakili Oliver Shtolpe bilan uchrashdi.

Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar yuksak baholalanib, mazkur jarayonni BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi to'liq qo'llab-

quvvatlashi ta'kidlandi.

Qayd etilganidek, O'zbekistonda korruptsiya hamda odam savdosiga qarshi kurashish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. BMTning mazkur tuzilmasi bu yo'nalishdagi

sa'y-harakatlarni shuninglamma qo'llab-quvvatlayotgani, harioningdek, korruptsiya, gijohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishi va odam savdosiga qarshi kurashish borasidagi tajribasi xalqaro standartlarni hisobga olgan holda milliy mexanizmlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Turizm imkoniyatlari va sa'y-harakatlar samarasi

Keyingi yillarda yurtimizning barcha viloyati kabi Qashqadaryoda ham katta o'zgarishlar yuz berayotir. Ilgari infratuzilmani jihatdan yetarlicha rivojlanmagan hududlar bugun tubdan o'zgarib, zamonaviy shaharlar

va xizmatlar markaziga aylanmogda. Sanoat, tadbirkorlik, turizm, tibbiyot, ta'lim sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar aholining hayot sifatini yaxshilash, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitaliga sarmoya yo'naltirishda muhim o'rin tutayotir.

Yuksalish odimlari

Masalan, birgina Ko'kdala tumanida amalga oshirilgan ishlar vohadagi sanoat va infratuzilma sohasidagi ulkan o'zgarishlarning yaqqul namunasi deiyish mumkin. Avvallari yantqozor bo'lgan maydonda bugun zamonaviy

shaharcha — "Yettitum" barpo etildi. Yangidan ma'muriy binolar, maktablar, bog'chalar, shifoxonalar va xizmat ko'rsatish markazlari qurilib, aholi uchun barcha sharoit yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faol qo'llab-

quvvatlanmogda. Turi xizmat ko'rsatish markazlari, savdo do'konlari, mahalliy sex va ustaxonalarda tashkil etilishi orqali aholining daromad manbai oshmogda. Bu esa kambag'allikni qisqartirishga xizmat qilayotir.

ODAM SAVDOSI VA MAJBURIY MEHNATGA QARSHI KURASHDAGI YUTUQLAR E'TIROFI

Suhbat chog'ida korrupsiya va odam savdosiga qarshi kurashishda parlamentning roliga e'tibor qaralib, bu o'z o'rnida xalqaro miqyosda tan olingan mustahkam qonunchilik bazasini shakllantirishga xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Shu bilan birga, O'zbekistonning bu boradagi tajribasi xalqaro darajada namuna bo'lishi mumkinligi e'tirof etildi.

Uchrashuvda jinoyatchilikning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash sohasidagi hamkorlikni faollashtirishga, shuningdek, global tahdidlar - raqamlashtirish, mehnat migratsiyasining kengayishi va boshqa ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda 2026 - 2030-yillarga mo'ljallangan hamkorlikning yangi "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI TIZIMIDAGI YANGILIKLAR



Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qonun O'zbekiston fuqarolarining xorijda vaqtinchalik ish faoliyatlarini olib borishi va chet el fuqarolarining mamlakatimizda mehnat faoliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Qonun o'z o'rnida xalqaro miqyosda tan olingan mustahkam qonunchilik bazasini shakllantirishga xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Shu bilan birga, O'zbekistonning bu boradagi tajribasi xalqaro darajada namuna bo'lishi mumkinligi e'tirof etildi.

Oxirgi yillarda yurtimizda ma'muriy islohotlar natijasida mazkur sohani boshqarish tizimida qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tugatilib, uning barcha vazifalari va huquqiy majburiyatlari Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan Migratsiya agentligiga o'tkazilgan qonun normalarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Senatlar tomonidan qonunning ayrim normalari bugungi kundagi islohotlar natijasida o'z doiralarini yo'qotganligi sababli "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonunning davlat organlari, shu jumladan, maxsus vakolatli organga doir muddatlarini qayta ko'rib chiqish va maromiga yetkazish zarurligi qayd etildi.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Turizm imkoniyatlari va sa'y-harakatlar samarasi

Umuman, viloyatning qay bir tumaniga bormang, katta o'zgarishlar, aholining hayotdan rozi bo'lib yashayotganiga guvoh bo'lasiz. Deylik, vohada turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda.

Alohida e'tibor tufayli viloyatga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni yildan-yilga oshib borayotir. Xususan, Shahrisabz tumanidagi Miraki mahallasining turistik markazga aylanishi hududning ayni sohadagi strategik yutuqlardan biri bo'ldi. Ushbu maskanda yaratilgan shart-sharoitlar nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyohlarni ham o'ziga jalb etmoqda. Turizm orqali aholi bandligi ta'minlanib, mahalliy mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talab oshyapti.

Prezidentimizning hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi bilan yaqindan tanishish, xalq bilan ochiq muloqot qilish maqsadida Qashqadaryo viloyatiga bu galgi tashrifi ham voha ahlining kayfiyatini ko'tarib, ularni yangi

marralar sari ruhlantirgani rost. Binobarin, tashrif davomida sanoat, tibbiyot, turizm, energetika kabi ko'plab sohalardagi korxonalar faoliyati bilan tanishildi, mahallalardagi buniyodkorlik ishlari ko'zdan kechirildi. Xususan, Qarshi shahridagi "Alp texno servis" eksportchi korxonasi, Shahrisabz shahridagi ko'p tarmoqli kardiologiya markazi, Yakkabog' tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivi va bu yerda barpo qilingan "Eko bozor" ko'zdan kechirilib, aholi bilan ochiq va samimiy muloqotlar bo'lib o'tdi.

Shu yurt farzandi sifatida oxirgi yillarda eng chekka hududlarda ham amalga oshirilayotgan xalqchil islohotlarga saylovchilar bilan uchrashuvlarimiz davomida bevosita guvoh bo'lyapmiz. Shu ma'noda, Qashqadaryo viloyatidagi ulkan o'zgarishlar yurtimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun" tamoyilining amaldagi yorqin namunasidir. Yantoqzordan shaharcha, bog'chasiz hududdan ta'lim markazlari, uzoq tibbiy xizmat o'rniga mahalliy zamonaviy

shifoxonalar - bularning barchasi odamlarning hayotida tub o'zgarishlar yaratib, farovonlik sari yo'l ochmoqda. Ayni chog'da viloyat nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham yuksalib boryapti. Bu esa hudud va mamlakatning umumiy rivoji uchun ham katta poaydevor yaratadi.

Qayd etish joizki, bugun mamlakatimizda texnologik "sakrash" kuzatilmoqda. Xususan, joriy yilning besh oyida sanoat 6,4 foiz o'sgan bo'lsa, bu sohada eksport 6 mlrd. dollardan oshgani diqqatga sazovor.

Albatta, bunda Qashqadaryo sanoatining hissasi katta ekanligi diqqatga sazovor. Shunday eksportchi korxonalardan biri - Qarshi shahridagi "Alp texno servis"dir. U xorijiy "TSL", "HOFFMANN" brendlari uchun buyurtmalar tayyorlab beryapti. Shuningdek, mahalliy SMART brendiga asos solingan. Shu nomlar ostida yiliga 500 ming donagacha televizor va elektron platalar ishlab chiqarilayotir. Mahsulotlar sifati va dizayni bozor



talabiga mosligini alohida ta'kidlash kerak. Fikrimizni 70 foiz tovarlar eksportiga yo'naltirilayotgani, birgina o'tgan yili 2 mln. dollardan ziyod mahsulot eksport qilindi ham tasdiqlaydi.

Har o'nying oxirgi haftasida xalq bilan muloqot qilish maqsadida hududlarda bo'lib, saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazganimizda biror o'zgarish yoki yangilanishning guvohi bo'lamiz. Oddiy misol, yaqingacha yoshlar ish izlab xorijga ketayotgan bo'lsa, bugun ular o'z mahallasida mehnat qilyapti, daromad topyapti.

Sirasini aytganda, bugun

vohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar aholi bandligini ta'minlash, odamlarning turmush farovonligini yaxshilashga qaratilayotgani bilan ahamiyatlidir. Shubhasiz, davlat rahbarining bu galgi tashrifidan so'ng yuzlab yangi loyihalar amalga oshiriladi, minglab ish o'rinlari yaratilib, xalqimiz farovonligi yanada yuksaladi. Belgilab berilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlashda esa biz, deputatlar ham kamrabasta bo'lamiz.

Nargiza SALOMOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

DO'STONA ISHONCH NAMUNASI

Dunyodagi geosiyosiy vaziyat keskinlashib, tinchlik va barqarorlikka tahdid borgan sari kuchayayotgan bir davrda "Markaziy Osiyo - Xitoy" ikkinchi sammitining o'tkazilgani va unda qo'shni davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga bo'lgan qat'iy ishonchning yanada mustahkamlanganini, shubhasiz, xalqaro siyosat sahnasidagi eng muhim voqeelik sifatida baholasak, to'g'ri bo'ladi.

Fikr

Zero, bugun dunyoda yangidan-yangi paydo bo'layotgan ziddiyat o'choqlarini kuzatib, ular asosan qo'shni yoki bir mintqa davlatlari o'rtasida kechayotganining guvohiga aylanmasiz.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham sammitdagi nutqida bu haqda gapirib, barcha nizo va ziddiyatlar suverenitetni hurmat qilish, xalqaro huquq me'yorlari va BMT nizomi asosida faqat diplomatik sa'y-harakatlar yo'li bilan - muzokaralar stolidalari hal etilishi shartligini ta'kidladi. Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida Abadiy yaxshi qo'shni, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning qabul qilinishini tarixiy voqea sifatida baholadi.

Sian shahrida bo'lib o'tgan ilk sammitdan so'ng, haqiqatan ham, Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik aloqalari barcha yo'nalishda yangi bosqichga ko'tarildi. Umumiy savdo aylanmasi o'sib, joriy yilda bu ko'rsatkich deyarli 100 mlrd. dollarga yetishi kutilyapti. Qo'shma korxonalar va loyihalar soni esa 10 mingga oshadi. Bu mintaqada o'zaro ishonchga asoslangan yaxshi qo'shni, shiriklik munosabatlarining qaror topgani va Xitoy rahbariyatining Markaziy Osiyo davlatlariga bo'lgan do'stona ishonchi namunasidir.

Sammitda davlatimiz rahbari tomonidan Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida barcha yo'nalishdagi aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan muhim taklif va tashabbuslar ilgari surilidiki, bu tadbir qatnashchilari tomonidan mamnuuniyat bilan qo'llab-quvvatlandi.

Ana shunday muhim takliflardan biri - "Ipak yo'li madaniy merosi" yagona raqamli portalini yaratish taklifi bo'ldi.

Ma'lumki, Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mintqa davlatlari hamkorligi tarixiy bilan alohida ahamiyatga ega. Bugun ham xalqlarimiz bir-birining madaniyatini o'zaro boyitish va yaqinlashishga bo'lgan umumiy intilishga ega va bu madaniyatlar rangbarangligini hurmat qilish tamoyiliga tayangan holda yangi imkoniyatlar eishigini ochmoqda.

Shu jihatdan, "Ipak yo'li madaniy merosi" yagona raqamli portalini Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoyning tarixiy-madaniy resurslarini, ulardan tadqiqotchilar, talabalar, sayyohlar va kreativ sanoat vakillarining foydalanishiga imkon bergan holda birlashtiradi. Chunki bugun davlatlarimiz o'rtasida professional ta'lim sohasida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish, universitetlar rektorlari forumlarini o'tkazish, ilmiy akademiyalar va ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlari uchrashuvlarini tashkil etish orqali umumiy ilmiy-ta'lim platformalarini shakllantirishga katta ehtiyoj bor.

Navbatdagi "Markaziy Osiyo - Xitoy" sammiti ochiq, pragmatik hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga sodiqlik ruhida o'tdi va bu shubhasiz, barcha yo'nalishdagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarib, mamlakatlar va xalqlarimiz farovonligi hamda ravnaqini ta'minlashga xizmat qiladi.

Abdulkhalkim ESHBOYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Munosabat

IJTIMOY FAOLLIK

xalqimiz turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi

Davlatimiz rahbarining hududlarga qilgan har bir tashrifi yangi loyihalar, tashabbuslar eishigini ochadi, yangi "o'sish nuqtasi"ni aniqlash imkonini beradi, desak, ayni haqiqat. Bu esa aholining hayot darajasini yanada oshirish, xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, ayniqsa, iqtisodiyotning rivojlanishiga zamin bo'ladi. Xalqimiz hayoti farovonlashib, odamlar daromadi o'sadi.

18-iyun kuni davlatimiz rahbari Toshkent viloyatiga tashrifi chog'ida hududda amalga oshirilgan ijobiy ishlarga alohida to'xtalib, galdagi vazifalarga e'tibor qaratdi.

Ma'lumki, Parkent o'zining go'zal tabiati, so'lim bog'lari, qorli tog'lari bilan tanilgan. Jumladan, tumandagi "Meridian Tempo" korxonasi qashli intensiv 54 gektar bog'da gilos, olma, nok va malinaning eksportbop navlari ekilgan bo'lib, ko'chatlar Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan. Daraxtlar o'zini o'zi changlatish xususiyatiga ega. Bu hosildorlik yuqori bo'lishida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy agrotexnologik tizimlar orqali bog'da to'liq tomchilatib sug'orish joriy etilgan. Ya'ni suv maxsus havzada to'planadi va tabiiy nishablik orqali sug'oriladi. Bunga energiya sarflanmaydi, natijada xarajat va mahsulot tannarxi kamayadi. Yanada e'tiborlisi, bog'da quyosh panellari o'rnatilgan.

Prezidentimiz mutasaddilarga bu usulni ommalashtirish, mevalarni parvarishlash va qadoqlash bo'yicha chet el tajribasini joriy etish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Aytilish joizki, turizm - nafaqat iqtisodiy rivojlanish omili, balki infratuzilmani takomillashtiruvchi muhim soha sanaladi. Shu bilan birga, mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar va ish o'rinlari yaratish demakdir. Zero, turizm sohasini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat infratuzilmasi ham yuksak darajada rivojlanadi.

Parkent tumanining "Oltin bel" cho'qqisidagi uch gektar joyda jami 188 o'rinli 2 ta mehmonxona, kapsula shaklidagi uyalar, restoran va xo'jalik binolari barpo etilgan. Umuman, hududda turizmni rivojlantirish maqsadida qiymati 1 mlrd. 800 mln. dollar bo'lgan 52 ta loyiha amalga oshirildi. Natijada 3 300 ta ish o'rnini yaratiladi va 1 mln. nafar sayyohga xizmat ko'rsatiladi.

Shu o'rinda yana bir muhim "o'sish nuqtasi"ga to'xtaladigan bo'lsak, tuman markazidan oqib o'tuvchi Parkentsoy qirg'og'ida qurilayotgan "Parkentsoy" turarjoy massivini ekoshahar deiyish mumkin. Uning umumiy maydoni 6 gektar bo'lib, jami 5 200 xonadonli 125 ta ko'p qavatlilari yo'quriladi. Ular barcha zamonaviy kommunal tarmoqlar, energiya tejankor texnologiyalar

bilan ta'minlanadi. Jumladan, uyalar tepasiga geokollektorlar o'rnatilib, suv isitishda foydalaniladi. Bu yerda, shuningdek, yangi ijtimoiy obyektlar, dam olish maskanlari barpo etiladi, yo'llar ta'mirlanadi, shuningdek, 58 ta noturar bino qad rostlaydi. Ularda savdo va xizmat korxonalarini joylantirib, 700 dan ortiq ish o'rnini yaratilishi ko'zda tutilgan.

Parkentsoyni tartibga keltirish, qirg'oqlarini mustahkamlash maqsadida so'ng 4 kilometrlik qismi to'liq betonlashtirildi. Bu esa yangi buniyodkorliklarga yo'l ochdi. Xususan, soy bo'ylab qariyb 5 kilometr yangi yo'l qurilishi esa markazda tirbandlikni kamaytiradi. So'nging Kumushkongacha bo'lgan o'znanlarini tartibga keltirish, ochiladigan 100 gektar yerda turizm obyektlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatning barqaror rivojlanishi va uning xalqaro jozibadorligi oshishi - tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtiradi, investitsiyalar oqimini ko'paytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda transport infratuzilmasi yo'nalishlarini modernizatsiya qilishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ana shunday strategik loyihalardan biri - "Toshkent-Sharqiy" aeroportini rekonstruksiya qilish. Aeroport yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan tez, xavfsiz va qulay qatnovlarni ta'minlash, ayni chog'da poytaxtning asosiy xalqaro aeroportiga yuklamani yengillashtirishga mo'ljallangan. Avvalo 4 kilometrlik uzunlikdagi uchish-qo'nish yo'lga yangilanib, og'ir samolyotlarni ham qabul qilish quvvatiga ega bo'ladi.

Yangi aeroport qulay joylashuvi tufayli poytaxt va Yangi Toshkent shahri uchun muhim transport xabiga aylanadi, shuningdek, Toshkent viloyatida turizmni rivojlantirish uchun qo'shimcha rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Eng muhimi, xalqaro tashriflar va ishbilarmonlik safarlarini amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi, xorijiy investorlarni qabul qilish uchun sharoitlar yaxshilanadi. Natijada mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi sezilarli darajada oshadi.

Temir yo'l qurilishida ham muhim yangilik. Baytqo'rg'on - Parkent elektrlashtirilgan temir yo'lining qurilishi esa tuman turizm salohiyati yuksalishiga, iqtisodiyotning sur'ati jadal o'sishiga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining Yangi Toshkent viloyatiga tashrifi mintaqani barqaror rivojlantirish, aholi turmush sifatini yaxshilash, tadbirkorlik va bandlik uchun, shubhasiz, yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mohira XO'JAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

SOG'LOM FARZAND - YORQIN KELAJAK

Sog'lom tanda - sog'lom aql deyishadi. Chunki jismonan baquvvat, ruhan yetuk farzandlarga ertaning yukini yelkasiga oladi. Ana shu maqsadda so'ngi yillarda mamlakatimizda bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yangi bosqichga olib chiqish, ularga ilg'or xorijiy tajriba asosida hamda zamonaviy diagnostika va davolash texnologiyalari yordamida tibbiy xizmat ko'rsatish, shuningdek, hududiy tibbiyot muassasalari imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Mazkur jarayonlarning huquqiy asosi yaratilib, yildan-yilga Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham ortib bormoqda.

Mulohaza

Statistik raqamlarga ko'ra 2024-yilda ushbu sohaga 388,4 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilgan. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 12,9 mln. nafardan ortiq 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga 824 ta oilaviy shifokorlik punkti, 984 ta oilaviy poliklinika, 207 ta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika va 233 ta bolalar davolash-profilaktika muassasalari tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda. Respublika bo'yicha 4 247 o'rindan iborat 13 ta hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi tashkil etilgan.

So'nggi besh yilda bir qator pediatriya xizmati muassasalari modernizatsiya qilinib, zamonaviy yuqori texnologik operatsiyalarni o'tkazishga mo'ljallangan texnikalar bilan jihozlandi. Ushbu xayrli ishlar natijasi o'laroq 2020-yilda tashkil etilgan Bolalar milliy tibbiyot markazida mingdan ortiq ochiq yurak operatsiyalari, jumladan, 60 nafar yangi tug'ilgan bolada ushbu noyob jarrohlik amaliyotlari o'tkazilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlar

bilan birgalikda sohada hal qilinishi lozim bo'lgan ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari tibbiyot xodimlari bilan to'liq ta'minlanmagan. Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari pediatri, neonatolog, ftziopediatr, immunolog, bolalar jarrohi, o'smirlar pediatri mutaxassislari yetishmaydi.

Tibbiyot muassasalarini bolalar o'rtasida sil kasalligini davolovchi ftziopediatr mutaxassislari bilan ta'minlash ko'rsatkichi ham qoniqarsiz holatda. Respublika bo'yicha mazkur ko'rsatkich 89 foizni tashkil qilsa, 7 ta hududda bu 80 foizdan ham past, Toshkent viloyatida esa 70 foizga ham yetmaydi.

Faoliyat ko'rsatayotgan ftziopediatrlarning 86,8 foizi pensiya yoshidagi mutaxassislar bo'lganligi bois hududlar uchun yosh ftziopediatr mutaxassislarini tayyorlash zarurati yuzaga kelmoqda va bu kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tufayli sohada xususiy tibbiyot jadal rivojlanmoqda. Xususan,

Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida xususiy klinikalar soni ortib borayotir. Birgina poytaxtimizning o'zida 40 ga yaqin davlat shifoxonasi va 127 poliklinika, jami 167 ta davlat tibbiyot muassasasi bolalarga tibbiy yordam ko'rsatmoqda. Xususiy klinikalar soni esa 1700 dan ortiqni tashkil etadi. Bolalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan tibbiyot muassasalarining bo'yo'gi 9 foizga yaqini davlat muassasasi, 91 foiz xususiy klinikalarni tashkil etmoqda.

Xususiy klinikalardagi tibbiy xizmat sifati, ulardagi mutaxassislar malakasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan monitoring qilinmayapti, ushbu yo'nalishda tahlillar va statistik ma'lumotlar yetarli emas. Bolalarga ko'rsatiladigan bepul tibbiy xizmat turlari, qanday doridarmonlar bilan ta'minlanishi haqida aholi yetarlicha xabardor emas.

Garchi dunyo miqyosida raqamlashtirish jarayonlari ketayotgan, O'zbekistonda ham bunga katta e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, bolalarga xizmat ko'rsatuvchi davolash profilaktika muassasalarida elektron xizmat ko'rsatish, xususan, "elektron navbat", "elektron karta" hamda "DIMED" elektron tizimi orqali yo'llanmalar berish to'liq yo'lga qo'yilmagan.

Bolalarga xizmat ko'rsatuvchi davolash profilaktika muassasalari ayrimlarining moddiy-texnik holati talabga javob bermaydi hamda zamonaviy yuqori texnologik uskunaga va

tibbiy jihozlarga ehtiyoj mavjud. Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida MRT tekshiruvlari yo'lga qo'yilmagan.

Sohada bunday muammo va kamchiliklar talaygina. Maqsad - ularni sanab o'tish emas, balki ana shu muammolarga birgalikda yechim topish.

Shu ma'noda, Oliy Majlis Senati ham mazkur yo'nalishda qator ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, Senat qo'mitalari ishchi guruhi mahalliy Kengashlar vakillari bilan birgalikda turli hududlarda o'rganish ishlarni olib bordi. Ana shunday tadbirlarda aholi salomatligi, xususan, bolalarga yaratilayotgan tibbiy yo'nalishdagi imkoniyatlar va mavjud muammolar o'rganildi, tahlil qilindi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mutasaddilarga aniq tavsiya va takliflar berildi. Masalaning jiddiyligidan kelib chiqib, Oliy Majlis Senatining yettinchi yalpi majlisida bu yuzasidan Sog'liqni saqlash vazirligiga parlament so'rovi yuborishga qaror qilindi.

Ushbu parlament so'rovining asosiy yo'nalishlari sifatida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari uchun pediatri, neonatolog, ftziopediatr, immunolog, bolalar jarrohi, o'smirlar pediatri mutaxassisliklari bo'yicha magistratura va klinik ordnaturada (residentura) davlat grantlari asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish, bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari yuklamasini

kamaytirish, ulardagi o'rin joylarni belgilangan me'yorlarga mosligini ta'minlash va rivojlantirish tug'ma nuqsonlari bilan tug'ilishning oldini olish bo'yicha qonunchilik takliflar kiritish, barcha bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari tuzilmasini va tibbiy xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini hududlardagi kasalliklar ko'rsatkichlaridan hamda xususiy klinikalar, tibbiyot oliyog'ohlari klinikalaridagi tibbiy xizmat yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda qayta ko'rib chiqish kabi masalalar belgilandi.

Shuningdek, sil kasalligi bo'yicha bolalar o'rtasida xavf guruhlarni ko'g'ri shakllantirish va nazoratni kuchaytirish maqsadida silga qarshi skrining tekshiruvlarini joriy qilish va immunodiagnostika usullari yordamida sil kasalligini erta aniqlashni hamda qizamiq va boshqa infeksiyalarga qarshi emlash bo'yicha xavfsiz, kafolatlangan hamda bepul xizmatlarni yo'lga qo'yish, bu haqda aholini internet orqali ochiq ma'lumotlar bilan ta'minlash va boshqa masalalar to'g'risida asoslantirilgan tushuntirish berish talabi qo'yildi.

Parlament tomonidan qo'yilgan ushbu talabning o'z o'rnida bajarilishi farzandlarimizning sog'lom voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oral ATANIYAZOVA, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

MARKAZIY OSIYO VA XITOIY:

ABADIY YAXSHI QO'SHNI VA STRATEGIK SHERIK

Xitoyning qadimiy poytaxti – Sian shahrining 2023-yil "Markaziy Osiyo – Xitoy" birinchi sammiti bo'lib o'tgan hududi yaqinida oltita anor daraxti yoz quyoshining zarrin nurlarida salobat to'kib turibdi. Ularning shoxlari mevaga to'lib, pastga egilgan. XXR Raisi Si Szinpin va Markaziy Osiyoning beshta davlati rahbarlari tomonidan e'kilgan ushbu tiriklik ramzi Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi tobora mustahkamlanib borayotgan aloqalarning yorqin dalilidir.

Tahlil

Sian sammitida ishtirokchilar har ikki yilda bir marta Xitoy va Markaziy Osiyoda navbat bilan oliy darajadagi uchrashuv o'tkazishga kelishib olgan edi. Mana shu safar Markaziy Osiyo va Xitoy yetakchilari Qozog'istonning Ostona shahrida ikkinchi sammitda uchrashdi.

Xitoyning mintaqamiz davlatlari bilan aloqalaridagi yangi davr ancha oldin boshlangan edi. "Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan do'stona hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish Xitoy tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishidir", degan edi Si Szinpin 2013-yilda XXR Raisi etib saylanganidan keyin Markaziy Osiyoga amalga oshirgan ilk tashrif chog'ida. Shundan beri Xitoy rahbari mintaqaga sakkiz marta tashrif buyurib, ikki tomonlama asosda, shuningdek, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Osiyoda o'zaro hamkorlik hamda ishonch choralarini bo'yicha kengash kabi platformalar doirasida o'zaro aloqalarni chuqurlashtirdi. Bugungi kunda dunyoda Markaziy Osiyo har bir mamlakati Xitoyning strategik sherigi bo'lgan yagona mintaqadir. Bu sheriklik munosabatlari yaxshi qo'shniçilik va o'zaro manfaatli hamkorlikni navbatdagi bosqichga ko'tarib, xalqaro munosabatlarning yangi paradigmasini yaratdi.

Sian sammitining asosiy voqeasi Sian deklaratsiyasining imzolaniishi bo'ldi. Unda XXR Raisi va Markaziy Osiyoning beshta davlati rahbarlari birgalikda yagona taqdirga ega bo'lgan Xitoy – Markaziy Osiyo jamiyatini yaratish yo'lida ishlashga ahd qilishdi. E'tiborlisi, bu g'oya Markaziy Osiyoda ikki tomonlama darajada allaqachon to'liq amalga oshirilgan. Si Szinpin va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining umumiy siyosiy iradosi Xitoy – Markaziy Osiyo hamkorligining barqaror rivojlanishi kaliti ekanligini isbotlaydi. Bu hamkorlik nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlaydi, balki Yevrosiyo mintaqasida ko'p tomonlama hamkorlikning yangi modeliga asos soladi.

Ostonadagi ikkinchi "Markaziy Osiyo – Xitoy" sammiti davomida esa o'zaro ishonch va samimiylik muhim bitim bilan to'ldirildi. Tomonlar mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga umumiy hissa qo'shadigan Abadiy yaxshi qo'shniçilik,



do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi tarixiy ahamiyatga molik shartnomani imzoladi. Ushbu shartnomani rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz aniq mexanizm va loyihalarni kiritgan holda Uzoq muddatli sheriklik konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. O'zbekiston yetakchisi ta'kidlaganidek, Xitoy bilan savdo, investitsiyaviy va texnologik hamkorlik Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirishda kuchli lokomotiv bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari anjuman davomida bir qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, mintaqamiz mamlakatlarning o'sib borayotgan salohiyati va Xitoyning sanoat sohasidagi yetakchiligini birlashtirish, bilimlar almashish va texnologiyalar transferingini samarali mexanizmlariga ega bo'lgan umumiy yangi imkoniyatlarni yaratish maqsadida yangi iqtisodiy sheriklik dasturini tez fursatda qabul qilish hamda Bosh vazir o'rinbosarlari darajasida Savdo va investitsiyalar bo'yicha hududlararo kengashni ta'sis etishni, kengashning birinchi yig'ilishini joriy yil oxirigacha O'zbekistonda o'tkazishni taklif qildi. Savdo aloqalarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti "Raqqamli makon va yo'l" doirasida "Raqqamli Ipak yo'li" ko'p tomonlama savdo platformasini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Shuningdek, reglament va standartlarni yaqinlashtirish, eksport mahsulotlarini Xitoy talablari asosida sertifikatlash uchun Toshkent shahrida Sanoatda standartlashtirish va sertifikatlashtirish mintaqaviy markazini tashkil etishga chaqirdi.

Iqtisodiy salohiyatni samarali ro'yoga chiqarish uchun sanoat va infratuzilmaviy o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish zarur. Shu maqsadda "Markaziy Osiyo – Xitoy"

sanoat va infratuzilmaviy makonining uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Xitoy investitsiyalari, texnologik va ilmiy yechimlarini jalb qilgan holda o'zaro bog'langan sanoat klasterlari, texnoparklar va logistika xabarlari tizimini yaratish shular jumlasidan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy energetika tizimlarini o'zaro bog'lash, jumladan, yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasini barpo etish megaloyihagini amalga oshirish masalalari ham diqqat bilan o'rganilishi – bugungi kun talabi. Mintaqaviy ahamiyatga molik yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan samarali moliyaviy vositalarni joriy qilish masalasi alohida dolzarblilik kasb etmoqda. Ayni paytda amalda bo'lgan xalqaro mexanizmlar, hech shubhasiz, muhim rol o'ynamoqda, ammo mintaqaning investitsiyaga bo'lgan talabini to'liq qoplay olmayapti. Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, Markaziy Osiyoni infratuzilmaviy rivojlantirishda kapital qo'yilmalar taqchilligi bir necha yuz

maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoyning tarixiy-madaniy resurslarini o'zida mujassam etgan, tadqiqotchilar, talabalar, sayyohlar va kreativ industriya vakillarini qamrab olgan "Ipak yo'li madaniy merosi" yagona raqqamli portalini yaratish taklifi ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, professional ta'lim sohasida hamkorlik dasturini ishlab chiqish, universitet rektorlari forumlari, fanlar akademiyalari va ilmiy-tadqiqot markazlari rahbarlarining uchrashuvlarini o'tkazish orqali umumiy ilmiy-ta'lim platformasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik ham asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz terrorizm, ekstremizm, radikalizm, narkotrafik, noqonuniy migratsiya va kibernetika xavflariga qarshi kurashishda maxsus xizmatlar va xavfsizlik kengashlari orqali ko'p tomonlama axborot almashish mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhimligini ta'kidladi.

“Bir makon, bir yo'l” tashabbusi doirasidagi hamkorlik mintaqada savdo, sayohat va almashinuvlarni samarali rag'batlantiradi. Buning isboti o'laroq 2024-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi rekord darajadagi 94,8 mlrd. AQSH dollariga yetdi, bunga qisman transchegaraviy elektron tijoratning jadal o'sishi sabab bo'ldi.

milliard dollar deb baholanmoqda. Shu munosabat bilan Prezidentimiz tomonidan infratuzilmaviy tashabbuslarni ilgari surish uchun samarali platforma bo'la oladigan "Markaziy Osiyo – Xitoy" taraqqiyot jamg'armasini ta'sis etish imkoniyatini ko'rib chiqish taklifi ilgari surildi.

Davlatimiz rahbari iqlim o'zgarishining barqaror rivojlanish uchun jiddiy tahdidlariga e'tibor qarab, 2030-yilgacha mo'ljallangan "yashil" rivojlanish dasturini qabul qilishni jadallashtirish, shuningdek, cho'llanishga qarshi kurashish, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, qurg'oqchil va cho'l hududlarida bioekologik barqarorlikni oshirish bo'yicha muloqot va sheriklik uchun ekologik alyansni tuzishga chaqirdi.

Iqtisodiy hamkorlikning barqaror raqqamli infratuzilmaviy shakllantirish maqsadida katta ma'lumotlar bazalari va proqessing markazlarining o'zaro integratsiyalashgan banklar tarmog'ini yaratish, shuningdek, asosiy energetika va transport yo'nalishlari bo'yab "Markaziy Osiyo – Xitoy" optik tolali aloqa liniyasining raqqamli trassasini barpo etish taklif qilindi.

Madaniy va gumanitar sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash

ko'p o'lchovli o'zaro bog'liqlik tarmog'ining rasmiy yaratilishini anglatib, ushbu tarmoq "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida jonli arteriyaga aylanishi kutilmoqda.

O'tgan yildan boshlab esa O'zbekiston, Xitoy rahbarlarining yangi transport arteriyasini yaratish borasidagi qarashlari izchil ravishda amalga oshirila boshlandi. Xususan, o'tgan yilning oxirida Xitoyning chegaradosh Jalolobod shahrida Xitoy – Xitoyning o'zbekiston temir yo'li qurilishining boshlanish marosimi bo'lib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev shu munosabat bilan bo'lib o'tgan marosim ishtirokchilariga murojaatida ta'kidlaganidek, ushbu magistral yo'lining ishga tushirilishi mintaqaviy savdo va investitsiyalar hajmini bir necha barobar ko'paytirish, transport xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, Markaziy Osiyoning ulkan tranzit salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu yo'l orqali yiliga 15 mln. tonna yuk tashiladi. Xitoydan Yevropa mamlakatlariga yuklarni yetkazib berish masofasi hamda muddati bir necha ming kilometr va deyarli bir haftaga qisqaradi. Yo'lchilarni muntazam tashishni yo'lga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi. Kelgusida ushbu temir yo'l liniyasi Transafyon yo'lga bilan tutashib Xitoy, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transport-kommunikatsiya tarmoqlarini samarali birlashtirish va kuchaytirishga imkon yaratadi.

Bundan, hech shubhasiz, barcha mamlakat iqtisodiy foyda ko'radi. Yuzaib yangi korxonalar va o'n minglab ish o'rinlari yaratiladi. Albatta, mazkur loyiha Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishiga, madaniy-gumanitar almashinuvlar rivojiga, xalqlarimizning yanada yaqinlashuviga xizmat qiladi. Temir yo'l magistrali qadimgi Ipak yo'lining tuguni – Qashqar (Shinjon Uyg'ur avtonom rayoni, Shimoli-G'arbiy Xitoy)dan boshlanib, To'rugart dovoni orqali Xitoyning o'zbekiston o'g'itib, Jalolobodga yetib boradi va O'zbekiston Sharqiydagi Andijonda tugaydi. Qisqasi, mazkur temir yo'l nafaqat transport yo'lga, balki Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lovchi muhim strategik ko'priç bo'lib xizmat qiladi.

Bugun Xitoy nafaqat "global fabrika", balki global bozor hamdir. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy iqtisodiyotlarining bir-birini to'ldirib turuvchi ustunliklarini hisobga olgan holda ushbu imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishdan manfaatdor. Demak, Ostonada o'tkazilgan "Markaziy Osiyo – Xitoy" ikkinchi sammiti to'siqsiz savdoni ta'minlash, Xitoyning yuksak texnologiyalarini jalb qilish, umumiy sanoat kooperatsiyasi va mahalliy lashtirish makonini shakllantirish, raqqamli iqtisodiyot va savdoni rivojlantirish, elektron hukumat, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish sohasidagi o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish imkonini bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi hamkorlik mintaqada savdo, sayohat va almashinuvlarni samarali rag'batlantiradi. Buning isboti o'laroq 2024-yilda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo hajmi rekord darajadagi 94,8 mlrd. AQSH dollariga yetdi, bunga qisman transchegaraviy elektron tijoratning jadal o'sishi sabab bo'ldi.

Bundan tashqari, Xitoy mintaqamiz davlatlariga madaniy-gumanitar sohadagi loyihalarida ham ko'mak beryapti. 2022-yil kuzida Buyuk Ipak yo'lidagi afsonaviy shahar – Samarqandga Tashrif chog'ida Si Szinpin O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga alohida sovg'a – Buyuk Ipak yo'lidagi qadimiy qal'a bo'lgan Xivaning miniatyurasini taqdim etdi. Xiva – Xitoy yordam berayotgan Markaziy Osiyodagi madaniy merosni saqlash bo'yicha birinchi loyiha. Xitoy mutaxassislari ish-tirokidagi ta'mirlash ishlari tufayli qadimiy shahar yangi qiyofaga ega bo'ldi.

Si Szinpin Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi do'stlik uzoq tarixga ega ekanligini ko'p bora ta'kidlagan. U bir necha bor Xan sulolasining elchisi Chjan Syanning ibratli hayotiga murojaat qilgan. Elchi 2100-yildan ko'proq vaqt muqaddam zaminimizga sayohat qilib, Xitoy va mintaqamiz o'rtasida mustahkam do'stlik hamda almashinuvlar yo'lini ochgan. Bugun esa Xitoyning Markaziy Osiyodagi diplomatiyasi faqat yo'llar yo'li temir yo'llar qurish bilan cheklanmaydi. Bu ishonch o'rnatish, o'sishga keng yo'l ochish va umumiy kelajakni bog'lash bilan davom etadi. Tobora bo'linib borayotgan dunyoda bunday hamkorlik modellari ertangi kunga umid bag'ishlaydi. Ayniqsa, 2024-yilda Xitoy – Markaziy Osiyo kotibiyatining ishga tushirilishi va o'ndan ortiq vazirlik darajasidagi muloqot mexanizmlarining yaratilishi muhim muvofiqlashtirish platformalarini iqtisodiy ta'minlaydi. Masalan, bojxona qoidalarini uyg'unlashtirish, soddalashtirilgan chegara tartib-qoidalarini va birlashtirilgan logistika standartlari ushbu kanallar orqali ishlab chiqilmoqda.

Sardor XO'JANIYAZOV,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Brifing

Mahallalarda saylovlar yakunlandi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida mamlakatimiz mahallalarida 2025-yil may-iyun oylarida o'tkazilgan fuqarolar yig'ini raisi saylovlari bo'yicha brifing o'tkazildi.

Unda O'zbekiston mahallalari uyushmasi axborot xizmati rahbari Jobir Asqarov ushbu siyosiy jarayon bo'yicha batafsil ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, joriy yilning 1-may sanasidan mamlakatimizda mahalla raislari saylovi boshlangan edi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, may-iyun oylarida yurtimiz bo'yab barcha mahallada saylovlar yakunlandi.

Saylov kampaniyasi davrida 14 ta hududiy, 208 ta tuman (shahar) ko'maklashuvchi komissiyalari hamda 8 852 ta ishchi guruhlari tuzilib, ularning tarkibiga 89 ming 578 nafar idora va tashkilotlar rahbarlari, deputatlar va mahalla faollari jalb qilindi. Saylovni o'tkazish tartibi bo'yicha "Qonun hujjatlari to'plami", "Uslubiy tavsiyalar", "100 savolga 100 javob" va infografikalar, yo'riqnomalar ishlab chiqilib, komissiyalar va ishchi guruhlarining 89 mingdan ziyod a'zolariga yetkazildi.

Ko'maklashuvchi komissiyalar va ishchi guruhi a'zolarining bilim-malakalarini oshirish bo'yicha o'quv-seminarlar o'tkazildi. Saylov yoshiga to'lgan 21,5 mln.gacha yaqin fuqarolar orasidan saylovda ishtirok etadigan tashkilotchilik qobiliyatiga, hayotiy tajribaga ega va mahalla hayotiga befarq bo'lmagan 2,6 mln. nafardan ziyod vakillar saylandi.

Aholining saylov jarayonlari bo'yicha faolligini oshirishga doir 133 mingtadan ko'p plakatlarda hamda bannerlar chop etilib, har bir mahalla binosi, ko'chalar, savdo shoxobchalari, guzarlar, bekatlar hamda ko'p qavatli uylarning kirish yo'laklariga osib qo'yildi.

Brifingda amalga oshirilgan ishlar natijasida



ko'maklashuvchi komissiyalar tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan, joriy yil 1-maydan 17-iyungacha qadar saylov jarayonlari respublikaning 208 ta tuman va shahridagi 8 852 ta mahallada o'tkazilgan qayd etildi. Saylovlarda 2 mln. 173 ming 634 nafar fuqarolar vakillari ishtirok etdi.

Saylovlarda qatnashgan 26 ming 334 nafar nomzod davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, kelgusi 5 yil davomida mahallani rivojlantirish bo'yicha ustuvor dasturlarini aholiga taqdimot qildi. Mazkur saylovlarda ularning 8 852 nafari mahalla raisi etib saylandi.

Jumladan, 3 962 ta mahallaga yangi raislar saylandi, saylangan raislarning 1 196 nafari ayollar, 306 nafari tuman (shahar) Kengashlari deputatlaridan iborat. Shuningdek, saylangan raislarning o'rtacha yoshi 51 yoshni tashkil etib, ularning mutaxassisligi turlicha. Tahsilarga ko'ra, saylangan raislarning 2 419 nafari (27,3 foizi) o'qituvchi, 1 705 nafari (19,3 foizi) iqtisodchi, 1 212 nafari (13,7 foizi) muhandis, 57 nafari (1 foizi) shifokor, 354 nafari (4 foizi) huquqshunos, 420 nafari (5 foizi) agronom, 2 685 nafari (30,3 foizi) boshqa kasb egalarini tashkil etadi.

Umuman, joriy yilgi saylovlar yangicha tartiblar, demokratik tamoyillar, shaffoflik va ochiqlik ruhida, ko'tarinki kayfiyatda uyushtirildi.

Rahim SHERQULOV
("Xalq so'zi").

Ko'rgazma



"Yashil" transformatsiya, ilg'or texnologiya va innovatsion loyihalar namoyishi

Ayni kunlarda poytaxtimizdagi "Central Asian Expo" (CAEX) ko'rgazma majmuasida ilk marotaba ekologik texnologiyalar bo'yicha "Eco Expo Central Asia 2025" xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan mazkur yirik tadbir mahalliy kompaniyalardan tashqari Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Italiya, Singapur, Vengriya, Saudiya Arabistoni, Qozog'iston kabi o'ttuzdan ortiq davlatlardan kelgan mutaxassislarni birlashtirish barobarida, ekologik muammolarga yechim topish, ilg'or amaliyotlar bilan o'rtoqlashish, konstruktiv muloqot olib borish va "yashil" transformatsiyani ilgari surish bo'yicha yetakchi platformaga aylandi.

Uch kun davom etadigan ushbu ko'rgazma iqlim barqarorligi, resurslarni tejash, toza texnologiyalarni joriy etish, sun'iy intellekt va yashil energetika sohasidagi innovatsiyalardan tortib, ekologik ta'lim bo'yicha ilg'or yechimlarga ega bo'lgan muhim masalalarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, xalqaro ekspertlar ishtirokidagi yalpi va panel muhokamalar, innovatsion loyihalar taqdimotlari, "yashil" energetika, ekoturizm, barqaror shaharlar, raqqamli texnologiyalar va iqlim moliyasi bo'yicha tematik sessiyalar, mahorat darslari, foto'ko'rgazmalar, madaniy tadbirlar va startaplar, tanlovlar ham o'tkaziladi. Yakunda ekologik dasturlar bo'yicha kelishuvlar imzolaniishi rejalashtirilgan.

Orolbo'yi mintaqasining barqaror rivojlanishi, "yashil" qurilish va yoshlarni ekologik kun tartibiga jalb etishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Umuman, ko'rgazma – "yashil" texnologiyalarini namoyish etish, yangi bozorlar sari yo'l ochish, strategik hamkorliklar o'rnatish va barqaror taraqqiyot yo'lida global harakatning ajralmas qismiga aylanish imkonidir.

"Xalq so'zi".

Parkentning qorli tog'larida Avstriya kompaniyasi tomonidan 1 200 gektarda tog'-chang'i kurorti qurish rejalashtirilgan.



Sudga odamlar adolat izlab keladi. Adolatli hukm chiqarilsa, fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchi ortadi. Aksincha bo'lsa...

Darhaqiqat, jamiyatda adolat qaror topishida sud faqat qonunga suyanishi kerak. Ana shunda odamlar adolat deganda sudni, sud deganda adolatni tushunishadi. Oxirgi paytlarda sudlarga haqiqatni tiklash uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Davlatimiz rahbari sud tizimiga aholining ishonchini oshirish vazifasini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining birinchi o'rinbosari – jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati raisi Ikrom MUSLIMOV bilan mamlakat sud-huquq sohasidagi, jumladan, sudlarning mustaqilligi, odil sudlovga erishish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan suhbatlashdik.

Bizning intervyu

QONUN USTUVORLIGI – OLIY MEZON

– **Ikrom To'xtamurodovich, O'zbekiston Oliy sudi yaqin o'tmishda qatag'onga uchragan, millat ravnaqi uchun xizmat qilgan yuzlab ajdodlarimizni oqladi. Ular orasida taniqli adib Abdulla Qodiriyning ham oqlangani tahsinga sazovor. Biz sudlov tizimining bunday zafarli va odil qarorini olqishlaymiz, albatta. Shu hukmni o'qiyotganingizda qalbingizdan nimalar kechadi?**

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 8-oktabrida "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha choralar taqdim etilishi" haqida Farmon va qarorlar bilan birga, millatimizning qonun ustuvorligini ta'kidlash uchun, qonunlarni qo'llashda adashmasligimiz lozim. Buning uchun esa sudga o'z ustida tinimsiz ishlashi, jumladan, sud amaliyotini tahlil qilish orqali tajribasini oshirib borish lozim.

hamda terrorizm (155-modda) jinoyatlari uchun qo'llanishi mumkinligi nazarda tutilgan. Shu sababli ham nafaqat umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash, balki ushbu jazoga loyiq jinoyat ishlarini ko'rish har bir sudyadan yuksak mas'uliyat talab etadi. Lekin umumlashtirib aytganda, sudya uchun ishing og'ir va yengili bo'lishi mumkin emas. Agar sudlar ishini toifalarga ajratsa, unga qarab ishni ko'rishga bo'lgan munosabati o'zgaradi, pirovardida sudyaning ishgga bo'lgan yondashuvi toifalanib adolat mezonini yo'qolishiga olib keladi.

– Keyingi yillarda mustaqil sud tizimini ta'minlaydigan, har birining zamirida xolislik, adolat va insonparvarlik tamoyillari mujassam ko'plab qonun hujjatlari qabul qilindi. Endi bunga amalda qanday erishish va uni saqlab qolish mumkin?

– O'tgan davrda qonun ustuvorligi bilan boshqariladigan demokratik davlatni yaratishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sud-huquq tizimini shakllantirish uchun yetmishga yaqin qonun, Farmon va qarorlar qabul qilindi. Sudlarga qo'shimcha shtatlar ajratilib, tergov sudyasi lavozimi joriy etildi. Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi, iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslari, "Sudlar to'g'risida", "Sudyalari oliy kengashi to'g'risida", "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida" qonunlar yangi tahrirda imzolandi. Sudlarning jinoyi, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi. Sud ishlari apellyatsiya, kassatsiya va tafish tartibida qayta ko'rib chiqish institutlari amaliyotga kiritildi. Tergov va surishtiruv, odamlarni hibsga olish va ishlarni sudlarda ko'rib chiqish muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi. O'lim jazosi jazo tizimidan chiqarilib, hibsga olish uchun sanksiya berish, qolaversa, inson huquqini cheklash va majburlor choralarini qo'llash masalalari sudlarga o'tkazildi. Endi sud va sudyalari zimmasida faqat adolatni yuzaga chiqarishdek ulkan vazifa qoldi.

– **Professional sudlarda oqlovlar kam bo'ladi. Siz uchun oqlov hukmlarining ko'pligi nimani anglatadi?**

– Umuman, hozir ham oqlov hukmlari kamaymagan, 2024-yilda 402 ta jinoyat ishi doirasida 723 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari chiqarildi. Yana 1899 nafar shaxs qisman oqlanib, 4372 nafar shaxsning ayblovidan ortiqcha moddalar chiqarib tashlandi. Buyam qisman oqlov hisoblanadi. Bu yerda biz adolatning ajralmas bo'lagi, sud jarayonining bir qismi bo'lgan sud qarorlari bo'yicha protsessual shikoyatlar mavjudligini tushunishimiz kerak. Ya'ni fuqarolardan kelib tushgan shikoyatlar yuqori sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi va shikoyat asosli bo'lsa, sud qarorlari o'zgartiriladi. Nazarimda, oqlov hukmi ortishi bilan faxrlanish to'g'ri emas. Aybsizlik prezumpsiyasi shunchaki deklarativ norma bo'lib qolmasdan amaliyotda ishlashi lozim. Qonunlar ishlamasa, bir parcha qog'oz bo'lib qolaveradi. Sud muhokamasi chog'ida bir necha yodlangan qonun bandlarini o'qib chiqishning o'zi kifoya qilmaydi. Menga qolsa, birorta ham oqlov hukmi bo'lishi kerak emas. Chunki har bir oqlov hukmning ortida asossiz ayblov, adolatsiz qarorlar yotadi. Shaxs oqlanishiga uning yaqinlari boshidan o'tkazgan ruhiy iztiroblarini aytmasak ham bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, shaxs sodir etmagan jinoyati uchun asossiz ravishda ayblanmasligini ta'minlash maqsadida dastlabki tergov sifatini oshirishga katta ahamiyat qaratish lozim, deb hisoblayman.

– **Siz "Sudlar tomonidan jazoni engillashtiruvchi holatlarni hibsga oling holda jazo tayinlash muammolari" mavzuida huquq bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgansiz. Ham olim, ham sudya sifatida qanday qarorlarni qabul qilish qiyin kechadi?**

– Umrbod ozodlikdan mahrum etish favqulodda jazo chorasi hisoblanib, ushbu jazoning Jinoyat kodeksida faqatgina javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-modda 2-qismi)



qilyotgani ularning sud tizimiga ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu ishonchni oshirish Oliy sudning va mamlakatimizdagi butun sud tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi.

E'tiborlisi, sudlarning mustaqilligi, ulay faoliyatining shaffofligi va qabul qilingan qarorlarning qonuniy, asosli hamda adolatli bo'lishi davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzi hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qilishini unutmashimiz zarur.

– Yiliga o'rtacha qancha sud ishlari ko'rib chiqiladi? Siz uchun eng qiyin jarayon qaysi biri?..

– Respublika bo'yicha yiliga o'rtacha 50 – 60 mingta jinoyat ishi, 120 ming atrofida sanksiya va materiallar hamda 600 mingdan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar ko'rib tamomlanadi. Eng qiyin jarayonga kelsak, jinoyat ishini o'rganishdan tortib, qaror qabul qilguncha bo'lgan har bir jarayonning o'z qiyinchiliklari bor. Ayrim hollarda sudyalari yuzlab jild jinoyat ishlari o'rganib, mingdan ortiq taraflarni sud majlisiga chaqirishga to'g'ri keladi. Sud majlisiga kelgan har bir taraf va guvohlarning ko'rsatmalarini eshitish, ularni sud majlisi bayonnomasiga qayd qilib borish bilan bir qatorda, ularga ichki ishonchidan kelib chiqqan holda baho berishning mashaqqatini tasavvur etavering. Shunga qaramay baribir qaror qabul qilish jarayoni eng mashaqqatlisi. Chunki unda inson taqdiriga aloqador ulkan mas'uliyat yotibdi.

– Sudyalari ishini engillashtirish uchun qanday texnik yangiliklardan foydalanilmoqda?

– Sud tizimiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida olib

“ O'z tajribamdan kelib chiqib, ishonch bilan ayta olamanki, bugungi kunda xolis, adolatli qarorlar qabul qilishda biz, sudyalari uchun biror-bir huquqiy yoki boshqa to'siqlar qolmadi. Bizning sohamizda yetti o'lchab bir kesish emas, kerak bo'lsa, yetmish o'lchab bir kesish zarur. Odamlarning sud tizimiga ishonchi sudyalar uchun qonuniy va adolatligiga ko'p jihatdan bog'liq. Agar juz'iy qonunbuzarlikka yo'l qo'yilsa, bu ommaviy tus olishi mumkin. Shu bois ham sudyalarning faqat bitta xo'jayini bo'lishi mumkin – u ham bo'lsa qonun. ”

bilan ayta olamanki, bugungi kunda xolis, adolatli qarorlar qabul qilishda biz, sudyalari uchun biror-bir huquqiy yoki boshqa to'siqlar qolmadi. Bizning sohamizda yetti o'lchab bir kesish emas, kerak bo'lsa, yetmish o'lchab bir kesish zarur. Odamlarning sud tizimiga ishonchi sudyalar uchun qonuniy va adolatligiga ko'p jihatdan bog'liq. Agar juz'iy qonunbuzarlikka yo'l qo'yilsa, bu ommaviy tus olishi mumkin. Shu bois ham sudyalarning faqat bitta xo'jayini bo'lishi mumkin – u ham bo'lsa qonun.

– **Sudlar tomonidan jazoni engillashtiruvchi holatlarni hibsga oling holda jazo tayinlash muammolari" mavzuida huquq bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgansiz. Ham olim, ham sudya sifatida qanday qarorlarni qabul qilish qiyin kechadi?**

borilayotgan islohotlarni alohida aytib kerak arziydi. Sud tizimining raqamlashtirish natijasida fuqarolarga sudlarga masofadan turib murojaat yo'llash, kerakli ma'lumotlarning fuqaroni ovora qilmasdan sudya tomonidan tegishli idoralardan elektron shaklda olinishi, sud majlislarida videokonferensaloqa tizimi orqali ishtirok etish kabi qulayliklar yaratildi. Shuningdek, jarayon ishtirokchilari SMS – xabaromalaridan foydalanadi. Hatto sud chaqiruv qog'ozlari ham asta-sekin o'tmishga aylanib bormoqda. Fuqarolar sudga hujjatlarini eski uslubda yoki onlayn tarzda topshirishi mumkin. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlislarining yozma bayonnomalari o'rnini audioyozuvlar egallamoqda. Audioyozuv sud jarayonida yozib olishning asosiy vositasi bo'lib, yozma bayonnomaga faqat qo'shimcha hisoblanadi. Bularning barchasi bizni besamart tartiblardan, sudlar vaqtining katta qismini egallaydigan, lekin amalda har doim ham talab qilinmaydigan hujjatlar oqimi – qog'ozbozlikdan xalos etdi.

Prezidentimiz tomonidan sud tizimiga sun'iy intellektni joriy qilish to'g'risida belgilab berilgan vazifalar odil sudlov sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatilishi, sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlari aniqlab

berilishi va shu kabi boshqa bir qator qulayliklarning yaratilishi, sud sohasidagi barcha kuttgan o'zgarishlardan biri deb hisoblayman. Bu islohotlar orqali sudlar faoliyatining xalqaro standartlar va rivojlangan davlatlar ilg'or yutuqlari darajasida yanada ochiq hamda shaffof bo'lishi ta'minlanadi.

– Nima deb o'ylaysiz, boshqa mamlakatlarga qaraganda, bizda sudga berish arzonmi? Deylik, odamlar yillab sudga qatnaydi va umuman, hamma masalalarni sud orqali hal etishi to'g'rimi? Bu o'zining ham, o'zganing ham vaqtini olish degani emasmi?

– Sud xarajatlari sudga bo'lar-bo'lmas murojaatlarni tiyb turuvchi omil. Maqsad fuqarolarning pulini olish emas. Ko'tarilgan masala sud faoliyatiga doir dolzarb masalalardan hisoblanadi. Buning negizida sudyalarning yildan-yilga ortib borayotgan ish hajmi bo'lib, uning o'sib borish sabablarini o'rganish, ish hajmini kamaytirish, masalaga doir qonunchilik asoslarini takomillashtirish yuzasidan Oliy sud tomonidan tizimli tahliliy ishlar olib borilmoqda.

Bu borada, albatta, savolingizdagi sud xarajatlari masalasi ham alohida o'rin olgan. Huquq nazariyasida sudga murojaat qilish chog'ida davlat boji to'lanishi zaruriy shartlardan biri hisoblanadi. Uning miqdori, oddiy qilib aytganda, qiymati ko'tarilgan masalaga qarab, ayrim da'vo turlari bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorigin baravariga, ayrim turlar bo'yicha esa undirilishi so'ralayotgan miqdorigin foiziga nisbatan belgilanadi. Lekin davlat bojiqa nisbatan o'matilgan bunday tartib o'zining haq-huquqini talab etadigan shaxs uchun sudlarga murojaat qilish uchun hech qachon to'sinlik hisoblanmagan. Ayniqsa, fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha to'lanayotgan davlat bojlarini, shu jumladan, chet el valyutada kam, ya'ni aytganingizdek, arzon deb bo'lmaydi.

Sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan amalga oshirilishi Konstitutsiyamizning 140-moddasida mustahkamlangan. Bunday holat Davlat byudjeti shakllanishiga, ya'ni undirilayotgan davlat bojining miqdoriga va tushumiga doir masalalar sudlarni qiziqitmasligidan dalolat beradi.

Amalga oshirilayotgan tahlillar, mamlakatimizda ichillik bilan yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida olib borilayotgan sud-huquq islohotlari davomida, jumladan, aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida keng ko'lami ishlar uddalanmoqda. Xususan, odil sudlovga erishish imkoniyatlari yanada kengaytirilmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, sudlarga murojaat qilish holatlari ko'payishi boshqa rivojlangan mamlakatlar singari aholining sudlarga bo'lgan ishonchi tobora ortayotganligidan dalolat.

Fikrimizcha, G'arb davlatlari singari odil sudlovni qimmatlashtirish o'rniga davlat rahbarining tashabbusiga muvofiq, odil sudlovga "sun'iy intellekt"ni keng joriy qilish yo'li bilan sudyalarning ish hajmini kamaytirsa bo'ladi. Hozirda bu borada Oliy sudga qizg'in ishlar bajarilayotgan, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda.

– Suhbatimiz yakunida tajribangizdan kelib chiqib, yosh sudyalarga nimalarni maslahat berasiz? O'qish davomida ular ko'proq nimalarga e'tibor qaratishlari kerak?

– Yosh sudyalari, avvalo, tanlagan kasbining mas'uliyatini anqlab yetishlari lozim. Sud qarorlariga qo'yiladigan uchta talab bor. Bu – qonuniy, asosli va adolatli bo'lish. Har qanday qarorni qabul qilishda sudyalari ushbu uchta tamoyilga mos yoki yo'qligini chuqur o'lchab ko'rishlari kerak, deb o'ylayman.

Yosh sudyalarga yana bir tavsiyam: yuridik adabiyotlardan tashqari badiiy asarlarni ham o'qib turish faqat foyda keltiradi. Badiiy asarlar, birinchidan, so'z boyligini oshiradi, ikkinchidan, qalbni yumshatadi, dunyoqarashni kengaytiradi. Yosh sudya uchun esa eng asosiy qurollardan biri, bu – so'z. Qolaversa, sudyalik kasbi uchun uyg'iq qalb kerak.

Suhbatdosh: **Adiba UMIROVA** ("Xalq so'zi").

Aks sado

Iqtisodiy modernizatsiya va xalqaro hamkorlik platformasi

O'zbekiston bugungi kunda faol iqtisodiy islohotlar va modernizatsiya jarayonini amalga oshirib kelmoqda. Bu esa xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Mamlakat xorij investitsiyalarini barqaror iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning muhim omili sifatida ko'rmoqda.



10 – 12-iyun kunlari bo'lib o'tgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida umumiy qiymati 30,5 mlrd. AQSH dollarilik investitsiya va savdo bitimlari imzolangan chet ellik sarmoyadorlarning O'zbekistonga bo'lgan ishonch va qiziqishining ortib borayotganiga yaqqol dalildir. Ushbu nufuzli forum nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlarida kuzatilayotgan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini namoyon etuvchi nufuzli xalqaro maydon hamdir. Bu global investorlar uchun O'zbekistonda mavjud bo'lgan salmoqli investitsiya imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit yaratish, xususi mulk egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, xususi sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat aktivlarini shaffof holda xususiy lashtirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Qisqacha aytganda, investitsiyaviy muhit tubdan yaxshilanmoqda. Jahon bankining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston investitsiyaviy jozibadorlik bo'yicha mintaqadagi eng yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Yangi O'zbekistondagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham o'zining munosib aksini topyapti.

Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohada erishgan muvaffaqiyatlari tag-zamirida shu jamiyatda yashayotgan va mehnat qilyotgan insonlarning bilimi, malakasi, tajribasi va salohiyati yotadi. Zero, inson kapitali mamlakatning erangi kunini belgilab beruvchi eng muhim mezonlardan biridir.

O'zbekistonda inson kapitalidan samarali foydalanishga iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida qaralmoqda. Davlatimizning aholini o'qitishi, uning salomatligini asrashi, ijtimoiy himoyani kafolatlashi borasidagi sa'y-harakatlari insonning nafaqat shaxs sifatida kamol topishi, balki mamlakatning

yanada raqobatbardosh bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Albatta, inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishiga ichki hamda tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ichki omillar insonning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'lsa, tashqi omillar boshqa subyektlarning inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga ta'siri bilan aloqador.

Inson kapitaliga kiritilgan har qanday investitsiya yetarli darajada yuqori rentabellikka ega bo'lsagina u o'zini oqlaydi. Shuning uchun inson kapitaliga investitsiya kiritish bilan bogliq investitsiya siyosatini amalga oshirishda bu boradagi tavakkalchiliklarni tahlil qilish va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash dolzarb sanaladi.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon qildi. Forum mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyish etish, investorlar bilan muloqot o'rnatish va investitsiya muhitini yaxshilash uchun muhim platforma bo'lib xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, biz investorlar uchun ochiq, erkin, barqaror va ishonchli mamlakat – yangi O'zbekistonni barpo etmoqdamiz. Bu yo'lida boshlagan bitimlar, qabul qilingan qaror va loyihalar iqtisodiy taraqqiyot bilan birga oddiy fuqaro uchun ham manfaatlidir. Kelajakda quriladigan zavodlar, tashkili etiladigan korxonalar va logistika markazlari orqali o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Bu ishsizlikni kamaytiradi va aholi daromadlarini oshiradi.

Umuman olganda, forumda imzolangan bitimlar, qabul qilingan qaror va loyihalar iqtisodiy taraqqiyot bilan birga oddiy fuqaro uchun ham manfaatlidir. Kelajakda quriladigan zavodlar, tashkili etiladigan korxonalar va logistika markazlari orqali o'n minglab yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Bu ishsizlikni kamaytiradi va aholi daromadlarini oshiradi.

Eldor TULYAKOV, "Taraqqiyot Strategiyasi" markazi ijrochi direktori.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi ufqlari



Yaqinda poytaxtimizda o'tkazilgan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi majlisi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida munosib o'rin egallashga intiluvchi davlat sifatidagi salohiyatini yana bir bor namoyon etdi. Ushbu nufuzli tabirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbus va islohotlar mamlakatning ochiq, barqaror hamda inson qadriga asoslangan iqtisodiy siyosat olib borayotganini tasdiqladi.

Forumning bosh mavzusi investitsiyalarni faqat iqtisodiy o'sish manbai emas, balki tinchlik va barqarorlikning asosiy kafolati sifatida ko'rishga bag'ishlandi. Moliyaviy barqarorlik kengashi tashkil etilib, Markaziy bankda kibexavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushirildi. Sug'urta tizimida milliy va global qayta sug'urtalash platformalari yaratildi.

To'rtinchi yo'nalishdan o'rin olgan sanoat inqilobi texnologik minerallarga talabni bir necha barobar oshirmoqda. O'zbekistonda volfram, molibden, lity va boshqa qimmatli minerallar zaxirasi katta. Yer osti boyliklari salohiyati 3 trln. dollarga baholangan. Minerallardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish xabari yaratish maqsadida Toshkent va Samarqandda "Kelajak metallari texnopark" tashkili etilmoqda. Investorlarga geologiya-qidiruvdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan faoliyat uchun 10 yil davomida renta solig'i qaytarib beriladi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida mustahkam o'rin egallashga intilayotganini yana bir bor isbotladi. O'zbekiston xorijiy investorlarga ochiq, ularga barcha sharoitni yaratib, umumiy taraqqiyot uchun birgalikda ishlaydigan taylor forumi natijalari O'zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda muhim iqtisodiy va investitsiya markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Birinchi yo'nalish – "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tish. Mamlakatimizda "yashil" energetikani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda bu sohaga 6 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilindi.

Ikkinchi yo'nalish raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yo'nalishini qamrab oladi. Bu soha iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylanganmoqda. 2025-yilda O'zbekistonning IT eksporti 1 mlrd. dollarga yetadi, 2030-yilda esa bu ko'rsatkich 5 mlrd. dollarga oshiriladi. Sun'iy intellektga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro indeksda mamlakatimiz bir yilda 17 p'og'onaga ko'tarildi.

Moliyaviy islohotlar va xususiy lashtirish uchunchi yo'nalish sifatida belgilandi. O'zbekiston moliya sektorida muhim

islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki bilan birgalikda moliya sektori ilk bor kompleks baholandi. Moliyaviy barqarorlik kengashi tashkili etilib, Markaziy bankda kibexavfsizlik va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushirildi. Sug'urta tizimida milliy va global qayta sug'urtalash platformalari yaratildi.

To'rtinchi yo'nalishdan o'rin olgan sanoat inqilobi texnologik minerallarga talabni bir necha barobar oshirmoqda. O'zbekistonda volfram, molibden, lity va boshqa qimmatli minerallar zaxirasi katta. Yer osti boyliklari salohiyati 3 trln. dollarga baholangan. Minerallardan yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish xabari yaratish maqsadida Toshkent va Samarqandda "Kelajak metallari texnopark" tashkili etilmoqda. Investorlarga geologiya-qidiruvdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan faoliyat uchun 10 yil davomida renta solig'i qaytarib beriladi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida mustahkam o'rin egallashga intilayotganini yana bir bor isbotladi. O'zbekiston xorijiy investorlarga ochiq, ularga barcha sharoitni yaratib, umumiy taraqqiyot uchun birgalikda ishlaydigan taylor forumi natijalari O'zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda muhim iqtisodiy va investitsiya markaziga aylantirishga xizmat qiladi.

Birinchi yo'nalish – "yashil" iqtisodiyot modeliga o'tish. Mamlakatimizda "yashil" energetikani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda bu sohaga 6 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilindi.

Ikkinchi yo'nalish raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yo'nalishini qamrab oladi. Bu soha iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylanganmoqda. 2025-yilda O'zbekistonning IT eksporti 1 mlrd. dollarga yetadi, 2030-yilda esa bu ko'rsatkich 5 mlrd. dollarga oshiriladi. Sun'iy intellektga tayyorgarlik bo'yicha xalqaro indeksda mamlakatimiz bir yilda 17 p'og'onaga ko'tarildi.

Moliyaviy islohotlar va xususiy lashtirish uchunchi yo'nalish sifatida belgilandi. O'zbekiston moliya sektorida muhim

Shvetsiya va Finlyandiya o'rnak:

TA'LIMGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga e'tibor yil sayin oshib borayotgani natijasida minglab ustoz va pedagoglar xalqaro tajriba almashish, malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Joriy yilning 24-apreldan 7-maygacha mamlakatimizning 10 ta yetakchi pedagogik oliy ta'lim muassasasidan 25 nafar rahbar va professor-o'qituvchi Finlyandiya ta'lim safarida bo'lib, fin va shved ta'lim tizimi bilan bevosita tanishdi. Bu esa nafaqat shaxsiy, kasbiy o'sish, balki milliy ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamkorlik

Xorijiy hamkasblarimiz bilan uchrashuvlar, ta'lim muassasalariga tashriflar va amaliy muloqotlar davomida ma'lum bo'ldiki, fin ta'limidagi eng asosiy ustunlik, bu – ishonch madaniyati va teng imkoniyatlar tamoyili.

Fin maktablari standartlashgan testlarsiz, nazoratsiz va raqobatsiz faoliyat olib boradi. Har bir maktab sifatli ta'limni ta'minlaydi, o'quvchi uchun eng yaxshi maktab – unga yaqin maktab hisoblanadi. Bu esa ta'limning barcha nuqtada teng va yuqori saviyada tashkil qilinganidan dalolat beradi.

Bilimga asoslangan jamiyatni barpo etishda ta'limning shaxs salohiyatiga yo'naltirilgan bo'lishi, uning fe'l-atvori, qiziqish va ehtiyojlari inobatga olinishi juda muhim. Bu – o'quvchi yoki talaba faqat ma'lumot egasi bo'lishi kerak emas, balki mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni his etadigan, yangilikka ochiq shaxs bo'lib kamol topishi kerak degan g'oyaning ifodasidir.

Finlyandiya va Shvetsiya ta'lim tizimlari aynan shu mezonlarga suyanganda holda shakllangan. Bu mamlakatlarda ta'lim faoliyatida raqamlar, reytinglar, bosim o'rni qo'llab-quvvatlovchi muhit, o'quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi ishonchli munosabat va faol hamkorlik egallangan. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim jarayonini samarali qiladi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va insoniylik muhitini mustahkamlaydi.

Ayni paytda ushbu davlatlarda o'qituvchi kasbi eng nufuzli va eng yuqori e'tiborga loyiq kasblardan biri hisoblanadi. Ularning ish holatlari, erkin qaror qabul qilish imkoniyatlari, kasbiy rivojlanishga bo'lgan sharoitlar va jamiyatdagi o'rni biz uchun ham ibrat bo'ladi.

Delegatsiyamiz a'zolari o'z kuzatuvlari davomida ushbu tizimlarning insonparvarlik va adolat mezonlariga asoslanganini alohida ta'kidlashdi. Endi asosiy vazifa – ushbu ilg'or g'oya va yondashuvlarni milliy sharoitimizga moslashtirish, bu yo'lda o'z pedagogik modelimizni shakllantirish, o'zgarishlar tashabbuskori bo'lish.

Ta'lim markazida – o'quvchi shaxsi

Finlyandiya va Shvetsiya kabi davlatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari bizning pedagogik islohotlarimiz uchun beqiyos manba hisoblanadi. U faqat bilim oluvchi emas,

kam, bu o'quvchilarga mustaqil o'qish va dam olish imkonini beradi. O'zbekistonda esa o'quv dasturlari zich va ko'p jihatdan markazlashgan. Shu bilan birga, fin jamiyatida o'qituvchilik kasbi juda yuqori qadrlanadi, unga kirish uchun qo'yilgan talablar ham yuqori. Bu esa ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir.

Shu o'rinda kichik, lekin mazmunan katta ahamiyatga ega misolni keltirish mumkin: har bir bolaning temperamenti va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib, unga mos va qulay o'rindiq (stul) tanlab beriladi. Bu orqali bola o'zini erkin, qulay his etadi, ta'lim olish jarayonida faol qatnashadi. Fin pedagogikasidagi bunday yondashuv bolani ma'lumot bilan emas, balki bilim bilan qurollantirishga xizmat qiladi, ya'ni bilim bolaga bosim yoki majburlash orqali emas, balki uning tabiiy qiziqishi va qobiliyatini rag'batlantirish orqali singdiriladi.

Bundan tashqari, baholar faqat o'quvchining o'ziga ma'lum qilinadi. Bu bahodan jazo yoki taqdirlash vositasi emas, balki motivatsiya uchun foydalanish tamoyilidir. Bunday tizim bolalarda o'z qobiliyatiga ishonchini saqlab qoladi, ularda tanqidlarga nisbatan psixologik immunitetni shakllantiradi. Bu bilan esa kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ichki ishonchga ega shaxslar kamol topishiga zamin yaratiladi.

Finlyandiya ta'lim tizimidagi har qanday detal, ko'zga ko'rinmasdek tuyulgan jihatlardan ham bola kelajagiga qaratilgan yuksak mas'uliyat va insonparvar yondashuvni namoyon etadi.

Asosiy masala – shaxs kamoloti

Shvetsiya ta'lim tizimi tenglik, ishonch va erkinlikka tayanadi. Bu yerda ham maktablarda standart testlar o'rni shaxsiy rivojlanish ustuvor hisoblanadi. O'qituvchi – yo'ldosh, o'quvchi esa markazdagi shaxs.

Insonparvar tizim va ishonch tamoyili

Asosiy. Finlyandiya va Shvetsiyadagi ta'lim tizimi inson qadri, erkin fikr va ishonch tamoyillariga asoslanadi. Bu mamlakatlarda



balki o'zini o'zi anglaydigan, faol, mustaqil qaror qabul qila oladigan to'laonli shaxs sifatida ko'riladi. O'qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonining yo'lbo'shchisi va ilhomlantiruvchisi sifatida faoliyat yuritadi.

E'tiborga loyiq jihatlardan biri, bu – kadrlar siyosati. Fin maktablarida o'qituvchi lavozimiga nomzodlar onlayn platforma orqali hujjat topshiradi. Maktab ma'muriyati nomzodlarni mustaqil ravishda saralab, suhbat o'tkazadi. Ishga qabul qilingan o'qituvchi o'z o'quv dasturini tuzadi, dars materiallarini erkin tanlaydi. Bu esa ularning shaxsiy pedagogik yondashuvlarini namoyon etishi va ijodiy izlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga, hamkorlikda ishlash, tajriba almashish, pedagogik muhokamalar orqali eng samarali uslublarni shakllantirish tizimi keng qo'llaniladi. Bu jamoaviy yechim topish madaniyatini yuksaltirish bilan birga, natijadorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tashrif doirasida Finlyandiya va Shvetsiya maktablaridagi ta'lim jarayonlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bizda eng kuchli taassurot qoldirgan jihatlardan biri, bu – sinfdagi sokin, muhojazzali, lekin ruhlantiruvchi muhit bo'ldi. Baland ovoz, tanbeh va tartibozlik o'rni qadrlanadi, muloqot va ishonch mavjud. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ochiq, teng huquqli munosabatlar har bir bolaning erkin fikr bildirishini rag'batlantiradi.

Shvetsiyada keng qo'llanilayotgan loyihaga asoslangan o'qitish uslubi esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, jamoada ishlash va muammoni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan ekan. Ularni real hayotda uchraydigan vazifalarga jalb qilish orqali o'qituvchi o'zining ahamiyatini va hayotiy mazmun kasb etadi.

Albatta, ushbu tizimlarni o'zgarishsiz tarzda o'z ta'lim modelimizga tatbiq etishning imkoni yo'q. Masalan, Finlyandiya ta'lim yuqoridagi

Ahamiyatli, ya'ni biz uchun eng muhim xulosa shundaki, ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni faqat texnologik vositalarga emas, balki inson omili – o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, individual rivoji va salohiyatini ochishga qaratish zarur. O'qituvchi esa ana shu rivojlanish jarayonining yo'lbo'shchisi bo'lishi shart. Finlyandiya va Shvetsiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim – shunchaki bilim berish emas. Bu – shaxsni anglash, qo'llab-quvvatlash, unga ishonish



va uning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ilhom berish jarayoni.

Har bir bolaga individual yondashuv

Finlyandiya ta'lim to'liq bepul tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar nafaqat darslarda, balki tushlik ovqati, ekskursiyalar hamda o'quv qurollari bilan ham davlat hisobidan ta'minlanadi.

Bu mamlakatda ta'lim jarayonida bolaning individual xususiyatlarini inobatga olinadi. Topshiriqlar har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasidan kelib chiqib beriladi. Jismoniy va aqliy qobiliyati turlicha bo'lgan bolalar birga ta'lim oladi. Bu esa inkluziv ta'lim tamoyillarining amaldagi ifodasidir.

o'qituvchi nazoratchi emas, balki o'quvchiga yo'l ko'rsatuvchi, sherik sifatida namoyon bo'ladi.

Deylik, dars jarayonida savol berish, fikr bildirish, munozara qilish odatiy hol hisoblanadi. Ta'lim statik emas, aksincha, harakat, interaktiv va amaliy faoliyatga boy. Kichik jismoniy mashqlar, ochiq havoda o'tkaziladigan darslar, tajriba, kuzatuv va jamoaviy ishlash bolalarning kognitiv faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Fin maktablaridagi muhit – qulaylik, xavfsizlik va estetik ta'minlanishga asoslanadi. Har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlaydi. Maktab ta'lim maskani emas, balki hayot maktabi sifatida shakllangan.

O'z navbatida, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga keng sharoitlar yaratilgan:

Darslar muloqot, amaliy mashg'ulot va jismoniy faollikka boy. Eng muhimi, har bir bola o'z qobiliyatiga qarab o'qish imkoniga ega.

Maktab muhiti xavfsiz, qulay va estetik hisoblanadi. Texnologiya inson omilini qo'llab-quvvatlaydi. Nogironligi bo'lgan bolalar ham umumta'lim tizimida teng ta'lim olishadi. O'qituvchilar kasbiy va ma'naviy jihatdan yuqori qadrlanadi, ular ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Son'gi yillarda O'zbekistonda ham ta'lim sohasida ulkan islohotlar amalga oshirildi. Pedagogik malakasini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, texnologik vositalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni integratsiyalash ishlari izchil davom etmoqda.

Nordik mamlakatlari, jumladan, Finlyandiya va Shvetsiya ta'lim modellari – inkluzivlik, individual yondashuv, amaliy hayot bilan bog'liqlikda alohida ahamiyat kasb etadi. Adaptiv platformalar, virtual modellar va real hayotiy tahlillar o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi.

Shvetsiyada o'quvchi fikrini erkin ifoda etish rag'batlantiriladi, "to'g'ri javob" emas, balki asosli mulohaza qadrlanadi. Bu, o'z navbatida, faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishiga xizmat qiladi.

E'tiborga molik yana bir jihat, pedagog kadrlarni tayyorlashdagi mustahkam tizim va o'zaro metodik hamkorlik muhiti. O'qituvchilar doimiy ravishda tajriba almashish, tahlil va ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishga rag'batlantiriladi.

Bu tajribalardan kelib chiqib aytalimizki, muvaffaqiyatli ta'lim tizimi – bu faqat qaror va hujjatlar emas, balki maktab ichidagi hayot, insonlararo munosabatlar, ishonch va hamkorlik madaniyati.

Xalqaro Nordik universiteti tashabbusi bilan tashkil etilgan malaka oshirish safari davomida Finlyandiya va Shvetsiya ta'lim tizimlari bevosita o'rganildi. Ushbu mamlakatlarda ta'lim faqat bilim berish emas, balki shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi, insoniylik va erkinlikka asoslangan hayotga tayyorlovchi tizimi sifatida qaraladi.

Bu yerda har bir bola shaxs sifatida qabul qilinib, unga teng imkoniyatlar, emosional barqarorlik va erkin o'sish muhiti yaratiladi. O'quvchi – faol subyekti, o'quv jarayonining ishtirokchisi; o'qituvchi esa yo'lbo'shchi va jamiyatda obro'li mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.

Fin va shved maktablari bolalar hayotining markaziga aylangan: ular nafaqat o'qishadi, balki mulohaza yuritish, jamoaviy ishlash va muammolarni mustaqil hal qilishni o'rganishadi. Texnologiyalar ongli tarzda ta'limga joriy etiladi, o'qituvchilar muntazam kasbiy rivojlanadi, ota-onalar bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Bu tajriba O'zbekistonda ta'lim tizimi uchun boy xazinadir. Uni mahalliy sharoitga moslashtirib, ta'limni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish imkoni bor. Ammo bu jarayon fidoyi o'qituvchi va professorlardan chuqur tahlil, o'zgarishlarga ochiqlik va mas'uliyat talab etadi.

Fin ta'lim tizimining PISA tadqiqotlaridagi muvaffaqiyati, qisqa o'quv davriga qaramay yuqori natijalarga erishishi – samarali va insonparvar yondashuvning aniq isboti. Demak, o'rganish, kuzatish va tajribani joriy etish har bir zamonaviy pedagogning nafaqat kasbiy, balki fuqarolik burchiga aylangan lozim.

Charos AHMEDOVA,
Xalqaro Nordik universiteti
o'qituvchisi,
Shukurillo YO'LDOSHEV,
tayanch doktorant.

MILLIY KONTENT:

Insoniyat evolyutsiyasida madaniy bilimlarni uzatishning rivojlanish bosqichlarini arxeologik ma'lumotlar asosida o'rganib chiqqan Italiyaning Pontifik Muqaddas xoch universiteti va Fransiyaning Bordo universiteti tadqiqotchilari yaqinda bir qiziqarli xulosaga kelishdi. Ularining ta'kidlashicha, odamlar o'zlaridagi bilimlarni boshqalarga o'rgatishni taxminan 2 million yil oldin boshlagan ekan. Bunda ustozlar shogirdlarining yangi ko'nikmalarni egallashi oson bo'lishi uchun o'z harakatlarini ataylab sekinlashtirgan.

Mushohada

Bu ilmiy xulosaning ahamiyati shundaki, aynan bilimlarning avloddan-avlodga o'tib, mukammallashtirib borishi insoniyat taraqqiyotini ta'minlagan asosiy omildir. Shu nuqtayi nazardan, bugungi axborot davrida biz qaysi manbalardan qanaqa ma'lumotlarni olishimiz nafaqat dunyoqarashimizning shakllanishiga, balki kelajagimizning qanday bo'lishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bundan bor-yo'g'i 10 – 20 yil muqaddam biz uchun asosiy tekzor axborot manbalari televideniye, radio va gazeta-jurnallar edi. Bugunga kelib esa internet eng yuqori mavqeni egallamoqda. Hatto an'anaviy ommaviy axborot vositalari ham raqamli formatlarga o'tyapti. Dunyoqarashimiz, tarixga va siyosatga, atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga munosabatimiz asosan internetdan olayotgan ma'lumotlar asosida shakllanyapti.

Shunday bir vaziyatda turli siyosiy qarashlar o'rtasida keskin raqobat yuzaga kelmoqda. Tomonlarning har biri bu raqobatda ustun kelish uchun yana o'sha internetdan foydalanishyapti – o'z qarashlarini asoslovchi audio, video va matn ko'rinishidagi kontentlarini tobora ko'paytirmoqda.

Xo'sh, bizchi? Biz o'z milliy manfaatlarimizni ifodalaydigan ma'lumot va axborotlarni internet



orqali yetarli darajada tarqata olaymizmi? Dunyo hamjamiyatiga o'z so'zimizni aytay olaymizmi? Bu savolga javob berish uchun ba'zi bir faktlarga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. "Roketpervod" sayti bergan ma'lumotga ko'ra bugungi kunda internetda tarqatilayotgan kontentning 27 foizi ingliz, 20 foizi xitoy (mandarin dialekti), 8 foizi ispan, 5 foizi arab tilida. Bu – eng katta ko'rsatkichga ega bo'lgan tillar. Mana shu ma'lumotlarni e'lon qilgan sayt rus tilida bo'lib, bu tiling internetdagi ulushi 3 foizni tashkil etadi. Ma'lumotlarni nega boshqa tilda yuritiladigan saytdan olganimga kelsak, ochig'ini aytish kerak – ularni o'zbek tilida topish amrimahol. Butunjahon internet tarmog'ida ona tilimizda yaratilgan kontent shu qadar kamki, yuqoridagi keltirilgan ro'yxatda bizning tilimiz "boshqa tillar" sirasiga kiritib yuborilgan.

Shu jihatdan, 2024-yil 12-yanvarda bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratib, bu tahdidlarga munosib kurashish uchun axborot makonida milliy kontent yaratish zarurligini kuyunchalik bilan gapirgani berish emas. "Agar biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o'z qo'llimizga olmas ekanmiz, dunyodagi

O'ZBEKNING O'Z SO'ZI

voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo'lamiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliylar ma'lumotlar, real voqealarga bo'lgan ehtiyojni biz to'ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mullaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi", degan edi davlatimiz rahbari.

Qisqa va aniq qilib aytilgan bu so'zlarning zamirida aslida olam-olam ma'no bor. Bugungi globallashayotgan dunyoda nafaqat geosiyosiy ziddiyatlar, qurolli to'qnashuvlar, balki axborot xurujlari ham tobora avj olmoqda. Bir so'z bilan aytganda, axborot boshqalarga ta'sir ko'rsatishning qudratli vositasiga aylanmoqda. Aniq maqsadlarga yo'naltirilgan axborotlarni tarqatish orqali butun bir xalqlarning axloqiy qarashlarini, milliy an'analari va qadriyatlarini o'zgartirib yuborish mumkin. Bunday xurujlardan esa faqat millatning o'z manfaatlariga xizmat qiladigan kontent yaratish yo'li bilan himoyalash mumkin.

Mamlakatimizda bu yo'nalishda sa'y-harakatlar boshlanganiga ancha bo'ldi. Masalan, 2019-yildayoq Vazirlar Mahkamasining "Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirishga doir o'zshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilingan mazkur qaror bilan Internet jahon axborot tarmog'ida intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga ko'maklashadigan zamonaviy veb-resurslarni shakllantirish, shuningdek, axborot makonida O'zbekistonning tarixi, fani, madaniyati va san'atini targ'ib qilishni qo'llab-quvvatlash, milliy kontentni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni shakllantirish va boshqa bir qator maqsadlarni nazarda tutuvchi kompleks dastur qabul qilingan.

Dastur keng qamrovli bo'lib, unda, jumladan,

milliy veb-resurslar sonini ko'paytirish va ularni internetda targ'ib qilish, messenjerlarda hududiy jurnal va gazetalar axborot kanallarini tashkil etish, ilmiy va ta'lim sohasidagi plagiatga qarshi kurashish bo'yicha referatlar, maqolalar va dissertatsiyalar bankini shakllantirish, "Vikipediya" internet ensiklopediyasida O'zbekistonning mashhur sportchilari va sport tashkilotlari haqida sahifalar ochish, "Sport – bolalar nigohida" portalini yaratish kabi vazifalar qo'yilgan.

2025-yilning 15-may kuni esa "Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Unda bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar, jumladan, audiovizual va san'at asarlari, noshirlik va raqamli mahsulotlarni rivojlantirish va ommalashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Bular qatorida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni sog'lom turmush tarzi ko'nikmasi, tabiatni asrab-avaylash, milliy qadriyatlariga hurmat va ona Vatanga sadoqat hissini tarbiyalashga xizmat qiluvchi kontentlar yaratish hamda ularni ta'lim va tarbiya dasturlari bilan integratsiyalash, chet el kontentlarining bolalarning ongi va qabiga ta'sirini muntazam tahlil qilib borish, zararli trendlar, xatarli chellenjlarni aniqlash va ularga qarshi kontentlar ishlab chiqish, bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratish va ularni realizatsiya qilishni izchil qo'llab-quvvatlash, ushbu yo'nalishda yuqori bilim va malakaga ega kadrlar tayyorlash kabi vazifalarni qamrab olgan. Hujjatda, shuningdek, bolalar uchun mo'ljallangan kontentlar yaratuvchilarga bir qator soliq imtiyozlari

ham berilgan.

Shu o'rinda, mamlakatimizda internet nashrlari jurnalistlari hamda ijtimoiy tarmoq faollari (bloggerlar) o'rtasida "Eng yaxshi milliy kontent" tanlovi o'tkazilayotganini ham aytib o'tish joiz.

Albatta, bir maqola doirasida bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni sanab o'tish imkonsiz. Bu muhim ham emas. Muhimi – mana shu ishlar qay darajada samara berayotganida.

Bugungi kunda internetda o'zbek segmenti tobora kengayayotganini tan olgan holda, bu borada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar ham ko'pligini ko'rib turibmiz. Masalan, ko'p hollarda o'zimizga kerak bo'lgan ma'lumotni internetdan izlaganimizda, qidiruvga savolni ingliz yoki rus tilida kiritishga majburiy. Chunki o'zbek tilida bizni qoniqtiradigan javob juda kam yoki umuman yo'q bo'ladi. Dunyoda bo'layotgan voqealarni bilish uchun ham ko'p hollarda xorijiy kanallarga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Boisi – mahalliy ommaviy axborot vositalari o'sha xorijiy kanallarning axborotlarini o'zbek tiliga tarjima qilib berishdan nariga o'tmayapti. Bir-ikkita holatni hisobga olmaganda, hech biri xorijiy davlatlarda o'z muxbirlariga ega emas. Natijada biz bunday axborotlarni yo "Euronews", yo "Rossiya 24" prizmasi orqali qabul qilamiz. Vaholanki, xalqimizni turli axborot xurujlaridan himoya qilish uchun biz dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'z manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda baho berishimiz kerak.

O'zbekiston – boya tarixga, betakror madaniyatga, zamonaviy bilimlarga ega mamlakat. Bugun dunyoda yuritimizga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda. Biz yaratayotgan kontent ham shunga yarasha sifatli va keng qamrovli bo'lishi kerak. Toki, internet kengliklarida O'zbekistonning ovozi baralla yangrasin!

Jamoliddin TO'XTASHEV
("Xalq so'zi").

Sog'inch



Abdavali QUTBIDDIN

AZIZ VATAN, JONIM VATAN, SHONIM VATAN

Olislarda qo'ng'irog'in chalar karvon,
Yuki og'ir, yo'li og'ir, larzon-larzon,
Chaqmoqlarin chaqib o'tar qora osmon,
Ko'kragiga musthtar urar mardiy maydon –
Er yigitlar,
Sher singillar, qilich-qalqon.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Qoya cho'kar, Alpomishning na'rasidan,
Soylar sakrar adirlarning orasidan,
Qarg'a qo'nmas Barchinlarning tizzasiga,
Hayot suvi mangu ona ko'zasida.
Er yigitlar,
Sher singillar shevasida:
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Kuydirgani zulmat bilan yurdi qancha
Bolta o'ynab ot ustida yanchib-yancha,
Suv tubidan o'tlar chiqdi ko'k qoshiga.
Er yigitlar,
Sher singillar ko'z-qoshidan
O'qlar sachrar, yoylar sachrar yov boshiga.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Dunyo uxlar, kun mudrardi hisob bilmay,
O'tdi davru davronlari kitob bilmay,
Xorazmda sanoq chertdi ajdodlarim,
Ruh va qalbg'a saboq berdi ustodlarim.
Ilmi urfon
nomi Turon,
Er yigitlar,
Sher singillar
Qazdilar kon.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Bizlar kimmiz, turkiylarning aslidanmiz,
Sohibqiron Amir Temur naslidanmiz,
Kubro ham biz, Bahouddin Naqshbandmiz,
Marg'inoniy, qadim tarix – Samarqandmiz,
Gar Nasafda nafas olsa er yigitlar,
Andijonda kashta tiksa sher singillar,
Nafasidan hatto qishlar isib ketar,
Kashtasiga butun olam sig'ib ketar.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Yurtning usti Ustyurtmida, shamol – shoqol,
Uv dedimi, tuz qo'zg'alar – birvarakay.
Nukus – qal'am, ham yurakda tengsiz lolam,
Ey, onajon Berdaqqa ayt,
Qalbidir nay.
Er yigitlar, sher singillar,
Ash'or tinglang.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

O'zim shohid Moturidiyning xobgohida,
Musichalar uchib kelar tilovatga.
Buxoriyning har ertalab dargohiga
Kabutarlar boshin egar halovatdan.
Bu qay oshyon,
Go'zal imon – panohida,
Er yigitlar, sher singillar –
Nigohida –
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Azim Toshkent qad rostladi pahlavonday,
Toju taxtim ko'z-ko'z qilib bu jahonga,
Tug'romizni tumor aylab eshik ochdi,
Yer yuziga buyuklikdan so'zlar sochdi,
Podsho shahrim,
Gard yuqmasin jamolingga,
Er yigitlar,
Sher singillar saf tortishar,
Ozodlikning maydonida
Ahd aylashar.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Olтин vodiy halqasida uch gavharim,
Sirdaryoda sir bermagan mohpaykarim,
Baxmalini to'shab qo'ygan Jizzaxni ko'r,
Kakliklardan Zomin haqda qo'shiqlar so'r,
Er yigitlar,
Sher singillar,
Bo'linglar jo'r:
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

Duru marjon, bog'u bo'ston, O'zbekiston,
Ko'zim nuri musaffo tong, O'zbekiston,
Sajda etdim duo so'rab, bobo yurtim,
Har lahzada rizo so'rab, momo yurtim,
Er yigitlar, sher singillar,
Qo'l ko'tardi,
Ona, inon,
Ota, inon.
Qani birga, biz birgamiz, biz – hammamiz,
Aziz Vatan, jonim Vatan, shonim Vatan.

MIRZO ULUG'BEK VA GRINVIYA OBSERVATORIYASI:
VAQT O'LCHOVI TARIXI

Londonning janubi-sharqiy qismidagi Grinvich tumani Buyuk Britaniya poytaxtining nisbatan sokin va ko'rkam mavzalaridan. Bu hudud jahonga mashhur Grinvich observatoriyasi bilan ham tanilgan.

Faxr

Mazkur ilmiy muassasa ingliz qiroli Karl II (1630 – 1685) tashabbusi bilan 1675-yilda barpo etilgan. Rasadxonani tiklashdan asosiy maqsad dengizchilar uchun koordinatlarni aniq belgilash bo'lgan.

Shuningdek, bu hududdan dunyodagi nolinci vaqt meridiani o'tgan bo'lib, 1885-yilda astronom Nevil Maskelayn tomonidan "Grinvich vaqti" tushunchasi iste'molga kiritilgan. Shundan buyon dunyo bo'yicha vaqt o'lchov tizimi aynan Grinvich meridianiga qiyosan o'lchanadi. Masalan, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarda GMT (Greenwich Mean Time) +5 ko'rinishida belgilangan. Demak, bizda vaqt Grinvichga nisbatan 5 soat oldinroq "yuradi".

Xullas, butun dunyo o'z soatlarini Grinvichga qarab to'g'riyladi. Dunyo soatining belgilanishiga Grinvich observatoriyasi olimlarining ilmiy kuzatishlari sabab bo'lgan. Bu muassasaning qurilishiga esa Mirzo Ulug'bek maktabi hamda uning mashhur "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarining hissasi katta bo'lgan, desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Bunday deyshimizga ikkita rad etib bo'lmas dalil bor. Ulardan biri – Oksforddagi Ilm-fan tarixi muzeyida saqlanayotgan, Mirzo Ulug'bek maktabiga tegishli ustulob, ikkinchisi, shu shahardagi Bodlean kutubxonasidan o'rin olgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" qo'lyozmasidir.

Gap shundaki, mazkur qo'lyozma Mirzo Ulug'bek hayotligida

ko'chirilgan. Forsiyda bitilgan bu ilmiy asar hoshiyasidagi usmonli turk tilidagi qaydlar uning ma'lum vaqt usmoniy davri kutubxonasida saqlanganidan dalolat beradi. Katta ehtimol bilan qo'lyozma 1473-yilda Mirzo Ulug'bekning sadoqatli shogirdi Ali Qushchi tomonidan Samarqanddan Londonga qaytdi. Ular orasida misrlik olim Ptolomeyning "Almagest" asari sharhi – Abdurahmon as-Sufiyning "Qo'zg'almas yulduzlar tasviri haqida kitob" asari, Mirzo

qo'lga kiritgan. Grivz o'sha yilning aprelida usmoniy poytaxtida ingliz savdogari va konsuli Piter Uayt bilan uchrashadi. Uning ko'magida olim Ali Qushchi Samarqanddan keltirgan qo'lyozmalar va astronomik asboblarga ham ega bo'ladi hamda Londonga qaytdi. Ular orasida misrlik olim Ptolomeyning "Almagest" asari sharhi – Abdurahmon as-Sufiyning "Qo'zg'almas yulduzlar tasviri haqida kitob" asari, Mirzo

“ Butun dunyo o'z soatlarini Grinvichga qarab to'g'riyladi. Dunyo soatining belgilanishiga Grinvich observatoriyasi olimlarining ilmiy kuzatishlari sabab bo'lgan. Bu muassasaning qurilishiga esa Mirzo Ulug'bek maktabi hamda uning mashhur "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarining hissasi katta bo'lgan, desak, xato qilmagan bo'lamiz. ”

va boshqa yo'nalishlarda asarlar bitgan. U Samarqanddan ko'plab asarlar, rasadxonada ishlatilgan asbob-uskunalarini, demakki, ushbu qo'lyozmani ham o'zi bilan Istanbulga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Qo'lyozma hoshiyasidan o'rin olgan lotin tilidagi qaydlar esa ingliz olimi Jon Grivz (1602 – 1652)ga tegishli. Biz O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi delegatsiyasi bilan Oksfordga borganimizda bu qo'lyozma shu shahardagi Bodlean kutubxonasi Sharq Ko'ragoniy" qo'lyozmasidir.

Gap shundaki, mazkur qo'lyozma Jon Grivz 1638-yilda Istanbulda

Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari, sharqona ustulob ham bo'lgan.

Keyinchalik, Ulug'bek saroyida qayta ko'chirilgan, As-Sufiyning "Almagest" asariga sharhi nomalrum sabablarga ko'ra Fransiyaga borib qolgan va ayni paytda Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanmoqda. Jon Grivz fors tilini juda yaxshi bilardi, shu tilni o'rganish bo'yicha qo'llanma ham yaratgan. Shu bois u "Ziji Ko'ragoniy"ni puxta o'rganib chiqqan, o'z qaydlarini kitob hoshiyasiga bitib qoldirgan. U o'zi bilan olib kelgan ustulob yordamida osmon jismlari harakatini tadqiq etgan. Jon Grivz

ayni shu asarning birinchi qismida keltirilgan Sharq taqvimlari bilan tanishadi, Yerning Quyosh atrofida aylanish vaqtini ham puxta o'rganadi.

Ulug'bek asarida keltirilgan yilning o'rta uzunligiga asoslangan taqvim Yuliy Sezar kalendariga nisbatan aniq va mukammalligi bilan ajralib turardi. Keyinchalik Ulug'bek asari asosida u Yevropada amalda bo'lgan Yulian kalendarini isloh qilib, yangi taqvimni amalda joriy etish bo'yicha hukumatga murojaat qiladi. Ammo Grivzning yangi taqvimini joriy etish masalasi Angliyada fuqarolar urushi ketayotgani sababli ortga suriladi va faqat uning o'limidan bir asr o'tib mamlakatda joriy etiladi.

Grivz 1648-yili "Ziji Ko'ragoniy" dagi 98 yulduzning jadvalini lotinda chop etadi. O'sha yilning o'zida "Zij" dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650-yili esa u "Zij"ning birinchi qismini lotinchaga tarjima qiladi. Grivz umrining so'nggi oylarida bu tarjimalarini qayta nashr qilishga ham ulguradi. Bu asarlar o'sha paytda Oksford, Kembrij, Londondagi universitetlar, ilmiy markazlarda atroflicha o'rganiladi.

Jon Grivz 1652-yilda ellik yoshda vafot etadi. U o'zining Istanbuldan olib kelgan qo'lyozmalar va uskunalarini Oksforddagi Sevil kollejiga vasiyat qilib qoldirdi. Keyinchalik oksfordlik olimlar bu asarlar va uskunalaridan foydalanib, astronomiya bo'yicha yangi izlanishlarni amalga oshirdi. Jumladan, Oksford universiteti

professori Tomas Hayd (1636 – 1703) ham "Zij" dagi turg'un yulduzlar jadvalini 1665-yili forscha va lotinchada nashr etadi.

Bu asarlar, albatta, Angliyada astronomiya fani rivojiga katta turki beradi. 1675-yilda Robert Guk, Jon Kristofer singari Oksfordda ta'lim olgan astronom olimlar Qiro'l Karl II buyrug'iga binoan London yaqinida rasadxona qurilishiga jalb etiladi. Rasadxona bitgach, unga yana bir mashhur ingliz astronomi Jon Flemstid bosh astronom etib tayinlanadi. Dastlab dengizchilar uchun koordinatlarni aniqlash maqsadini ko'zlagan rasadxona aynan tadqiqotlar asosida nolinci meridian o'tgani aniqlangan hududda quriladi. Keyinchalik rasadxonaning asosiy binosida aniq vaqtni belgilash uchun maxsus soat o'rnatiladi. Bu esa ilm-fanda mashhur "Grinvich vaqti" atamasiga sabab bo'ladi.

Xulosa shuki, bugun jahon miqyosida katta ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday kashfiyotlar, ilmiy istilohlar ildizi bevosita ajdodlarimizning aql-zakovatiga borib taqaladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada astronomiya sohasida erishilgan yutuqlarda, yangi taqvimdan to mashhur Grinvich vaqti va observatoriyasining qurilishigacha – barchasida Mirzo Ulug'bekning munosib ulushi bor, desak, mubolag'a bo'lmasa kerak.

Rustam JABBOROV, jurnalist.

SOFI OSH SIRLARI

Nusrat Halimov – oshpazlar sulolasidan. Padari buzrukvori Navro'z otaning qavatiga kirganida hali suygai qotmagan yigitcha edi. Bugun Buxoro shahrining oldi oshpazlaridan. U haqda so'z ochilganda yon-atrofdagilar "Sofi osh tayyorlashning hadisini olgan", deyishadi. "Chorbog" osh markazidan xo'randalar qadami uzilmayotgani sababi ham shunda.

Mahorat

– Buxoroda qobili hamda sofi osh pishiriladi, – deydi Nusrat aka. – To'y-ma'rakalarni ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Sofi oshni Buxorodan boshqa joyda uchratmaymiz. U mazali, parhezboq taom. Mis qozonda tayyorlanadi.

Sofi osh pishirishning o'z yo'li bo'lgan. Buning uchun guruch alohida, go'sht alohida qaynatiladi. Dastlab qozonga sabzining bir qismi tushadi. Keyin go'sht solinadi. Ustiga yana sabzi tashlanadi. Mayiz, no'xat solingach tag'in sabziga navbat keladi. Keyin taom ustiga dog'langan moy sepiladi. Paxta moyiga kungaboqar, kunjut, qovun urug'idan olingan yog'ning aralashirilishi palovni yanada xushbo'y qiladi. Va 30 – 40 daqiqa dam yegach, taom tayyor bo'ladi.

Nusrat aka va uning shogirdlari qozon boshida girdikapalak bo'lib turgan pallada biz Buxoro Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumiga yo'l oldik.

– Ota-bobolarimizdan meros neki milliy taom bor, ular inson salomatligi uchun foydali, shu jumladan, sofi osh ham, – deydi oliy toifali o'qituvchi Nabijon Jalilov. – Chunki guruch bug'da pishiriladi. U qovurilmaydi. Shu bois ham yengil hazm bo'ladi. Tarkibida xolesterin kam, keksalar, yosh bolalar bemaol iste'mol qilishi mumkin. Biz uni bemorlarga ham tavsiya etamiz.

– Sofi osh kishi immunitetini oshiradigan taom sanaladi, – deydi shifokor Komil Tog'boyev. – U yengil hazm bo'ladi. Tadqiqotlarda sofi osh inson oshqozoni hazm qilish faoliyatini yaxshilashi aniqlangan. U organizmni toksinlardan, ya'ni zararli moddalardan tozalaydi. Boz ustiga tanani susvzlanishdan saqlaydi.

Mutaxassislar yana bir jihatga e'tiborni qaratahadi. O'tmishda ota-bobolarimiz mis qumg'onda choy qaynatib ichishgan. Misdan



tayyorlangan idishlar alohida qadrlangan. Bu bejiz emas. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, mis elementlari qon aylanishini yaxshilaydi. Miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning yurak-qon tomir faoliyatiga ham foydasi bor.

– Mis bakteriyalarga qarshi tabiiy vosita hisoblanadi, – deydi K. Tog'boyev. – Uning yuzasida zararli mikroorganizmlar uzoq yashay olmaydi. Shuning evaziga idish giyigenasi yaxshilanadi. Sofi osh tayyorlanadigan mis qozonlarning shakliga e'tibor bersangiz, ularning odatdagi qozonlardan farq qilishini sezasiz. Fikrimizcha, bunday qozonlar issiqlikni teng taqsimlaydi. Natijada osh risoladagidek pishadi.

...Biz yana "Chorbog" osh markaziga qaytamiz. Kun peshingha oqqan palla emamsi, oshpazlarning qo'li qo'lga tegmaydi. Va hayal o'tmay oxirgi mis qozonning tagi ko'rinib qoladi.

– Hozir kuniga 70 kilogramm guruchdan osh pishiryapmiz, – deydi Nusrat aka. – Salqin tushgan kezlarda, ayniqsa, qishda bundan bir yarim-ikki hissa ko'p sofi osh tayyorlaymiz. Ha, aytmoqchi, yondafarchangizga bu taomga sariq tusli sabzini ishlatishimizni ham yozib qo'yishni unutmang. Chunki u oshning mazasiga maza qo'shadi.

Ishtahangiz kamay bo'lsin, do'stlar!

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

Qadriyatlar

BETAKROR ME'MORIY YECHIMGA EGA MASKAN

Furqat tumanining Qo'qonboy mahallasida hunarmandchilikka ixtisoslashtirilgan maktab-internat faoliyat boshladi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda viloyat va tuman faollari, hunarmandlar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Aytish joizki, yog'och o'yakorligi, mebelsozlik, zardo'zlik va naqqoshlik kabi milliy hunarmandchilik turlariga ixtisoslashtirilgan 240 o'rinni zamonaviy maktab-internatida o'quvchilar uchun sport zali, oshxona, faollar zali hamda yotoqxonaga mavjud. Qurilish va jihozlash ishlariga mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 9,2 mlrd. so'm mablag' sarflandi.

– Prezidentimiz 2022-yili Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida oilaviy korxonamiz faoliyati bilan tanishib, yoshlarni yog'och o'yakorligi, naqqoshlik hunarini o'rganishga keng jalb etish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktab tashkil qilish tashabbusini ilgari surgan edi, – deydi Furqat tumanida joylashgan "Usta Yusufjon naqqosh" oilaviy korxonasi rahbari, O'zbekiston xalq ustasi Muhammadali Yunusov. – Shu bois maktab qurilishida o'zbek xalq amaliy san'atiga xos milliylik zamonaviylik bilan uyg'unlashtirildi.

Ushbu betakror me'moriy yechimga ega binoda yurtimiz ta'lim tizimida davom etayotgan "Dolzab 90 kun" dasturi bo'yicha o'quvchi-yoshlarning bo'sh



vaqtni mazmunli o'tkazish va kasb-hunar o'rgatish uchun ham barcha sharoit mavjud.

Tantanalı tadbir doirasida o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar, tasviriy san'at ko'rgazmasi hamda xalq amaliy san'ati durdonalari namoyish qilindi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

REKLAMA

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

ma'lum qiladiki,

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining 2023-yil 7-noyabr dagi hal qiluv qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1997-yil 15-oktyabrda "O'zbekiston Badiiy akademiasining maxsus jamg'armasi" nomi bilan (283-sonli), 2011-yil 29-martda esa "O'zbekiston Badiiy akademiasining Jamoat fondi" nomi bilan (283p-sonli) ro'yxatga olingan O'zbekiston Badiiy akademiasining Jamoat fondi tugatilmoqda.

21-22-iyun kunlari London shahrida "O'zbekiston madaniyati va milliy taomlari" festivali o'tkaziladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi – 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksak olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 22.00 Topshirildi – 00.55 1 2 3 4 5 6

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir X. Norboyev.
Musahih Sh. Mashrabboyev.